



INNOVATSION YONDASHUVLAR

NODIR METALLAR VODIYSI



QANDAY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DUNYODA MUQOBILI BO‘LMAGAN TAJRIBA MAYDONIGA AYLANMOQDA?

Molibden, volfram, indiy, reniy, palladiy, platina, galliy, talliy... Bu yer qatlamida juda kam uchraydigan elementlarning shartli nomi. Ular 70 dan ortiq metalldan iborat. Deyarli barchasi tarkibi murakkab ma'danlarda uchraydi, yuqori qiymati bilan ajralib turadi. Masalan, kaliforniy-252 metallining atigi bir gramm million dollarga baholangan. Uning bu darajada qimmatligi noyobligi bilan izohlanadi. Butun dunyoda atigi 5 gramm atrofida kaliforniy-252 ni topish mumkin ekan. Qolaversa, bu metall sun'iy ravishda bir martagina 1958-yili yaratilgan. U radioaktivligi bilan ajralib turadi. Parchalanish davrida juda katta miqdorda energiya ajralib chiqadi.

Ancha murakkab jarayonlar natijasida olinuvchi osmiy metalli yetti izotopdan iborat. Har biri turli massa raqamlariga ega — 184 dan 192 gacha,

185 va 191 bundan mustasno. Eng og'ir 192 izotop tabiiy osmiy umumiy hajmining 41 foizini, 187 izotop esa atigi 1,6 foizini tashkil etadi. Narxлари ham shunga yarasha. Har bir gramm 200 ming dollargacha yetib boradi.

Bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin. Noyob metallarning aksariyati tog' jinslarida murakkab birikma sifatida uchraydi. Shu bois, ularni ajratib olish uchun zamonaviy texnologiyalar, kuchli bilim hamda yuksak malaka talab etiladi. Bugungi kunda "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJning 7 ta nodir va kamyob mahsulot bo'yicha ishlab chiqarish texnologiyasiga oid mualliflik huquqiga egaligi uning ilmiy-muhandislik salohiyatidan dalolat beradi.

Bugungi kunda texnologiya chiqindilarni qayta ishlash muammasi butun dunyoni tashvishga

solmoqda. Mamlakatimiz ham bundan mustasno emas. Jumladan, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida ham mutaxassislar uzoq vaqtdan beri chiqindilardan foydalanish yo'lini izlab kelgan. Faqat keyingi yillarda bu borada muqobili bo'lmagan tajribaga ega bo'lindi.

2020-yil iyun oyida kombinatda ilk bor sofliigi 99,4 foizdan kam bo'lmagan palladiy kukuni o'ldi. Buning uchun 17 ta texnologik jarayonni bajarishga to'g'ri keldi. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida past konsentratsiyali elektrolit eritmalaridan yuqori tozalikka ega bo'lgan sof palladiy kukunini ajratib olishning yangi texnologiyasi ishlab chiqildi. Samaradorlik ham chakki emas, 80 foizni tashkil etdi.

Davomi 4-betda

2023 9-IYUL

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI

Gazetamizning bugungi sonida O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Robaxon Mahmudovanning saylovoldi tashviqoti bo‘yicha maqola chop etilmoqda. Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e‘lon qilinyapti.

3-betga qarang.

O‘ZARO MUNOSABATLARNING RIVOJLANISHI IKKI XALQ MANFAATLARIGA XIZMAT QILADI

Eronning yetakchi ommaviy axborot vositalari oliy darajadagi O‘zbekiston — Eron sammiti haqida

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 18-iyun kuni Eronga rasmiy tashrifi ushbu mamlakatning yetakchi bosma va elektron ommaviy axborot vositalari hamda tahlil hamjamiyati tomonidan keng yoritilayotir.



Tashrif kunlari Eronning yetakchi OAVda O‘zbekistonning zamonaviy rivojlanishi va Eron — O‘zbekiston munosabatlari bag‘ishlangan turkum axborot-tahliliy maqolalar e‘lon qilindi.

Jumladan, “Tehran Times” gazetasida chop etilgan maqolalarda O‘zbekiston bugun tubdan o‘zgargani alohida ta’kidlangan. Davlat rahbari tomonidan jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiya qilishga qaratilgan, uzoq muddatli istiqbolda mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan keng ko‘lamli hamda o‘zaro bog‘liq islohotlar majmui hayotga tatbiq etilmoqda.

Amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar 2021-yilga cha mamlakatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida o‘z ifodasini topgan. Islohotlar “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asoslanadi. Shuningdek, maqolalarda mamlakatning 2023-yil 1-maydan kuchga kirgan yangilangan Konstitutsiyasining asosiy qoidalar chuqur tahlil qilingan.


Davomi 2-betda



ADABIY DO‘STLIK — ABADIY DO‘STLIK

Jo‘zibador 100 JILDLIKNING JILOLARI

Shu kunlarda poytaxtimizda TURKSOY — Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti tashkil topganining 30 yilligi tantanalari bo‘lib o‘tdi. TURKSOY tomonidan o‘tkazib kelinayotgan yirik anjumanlar madaniyat va san‘at sohasini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish bilan bir qatorda, xalqlarimiz o‘rtasidagi qardoshlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.



Ma'lumki, shu yil bahorda ana shu hamkorlikning amaliy samarasi sifatida yurtimizda “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumi nashr etildi. Ushbu turkumga O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlaridan jami 450 dan ziyod mumtoz va zamonaviy shoir, adibu mutafakkirlarning asarlari kiritilgan quvonarlidir.

Jahonning eng peshqadam alloma va adiblari mumtoz hamda zamonaviy turkiy tili adabiyotlarning 1010 muallifi yaratgan badiiy so‘z javohirlarini jamlagan ushbu 100 jildlikka yuqori baho bermoqda. Mazkur ajoyib antologiyani nashrga hozirlagan mas’ul ijodkorlardan biri sifatida uning mag‘zi, mundarijasiga muxtasar o‘xtalishga qaytdim.

Til — el qalbining oltin kaliti. Turkiy xalqlar ana shu kalit bilan eng qadimgi davrlardan boshlab boshqa buyuk etnoslar qatori badiiy so‘z san’atining boqiy chashmalarini kashf etgan. Bu mazkur ajoyib antologiya misolida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Unda “Umumturkiy adabiyot namunalari” deb nomlangan rukn ostida birlashtirilgan dastlabki 5 jildning 2 jildi hamma-miz uchun birdek qadri bo‘lgan ulug‘ tilshunos Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarini (milodiy 1074, hijriy 466-yili yozib tugatilgan) o‘z ichiga olgan. Alloma bu durdona asarida “Ilmli, aqlli, odobli, xulqli, tarbiyali, fazilatli bo‘lish barobarida ana shu xususiyatlarni odamlar orasida tarqatish ham muhimdir”, deb yozadi.

Falsafa fanlari doktori H.Aliqulov “Devonu lug‘otit turk” Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy fikr taraqqiyoti uchun metin poydevor bo‘lganini ta’kidlaganida to‘la haqdir. Mahmud Koshg‘ariy ilm-u hikmatga boy bir ulug‘ insonni ta’riflar ekan, “dasturxonni qat-tiq qish kunlarida ham ochiq edi”, deb yozgani juda e’tiborli. Fanning yigirma-ga yaqin turiga oid ma’lumotlarni jamlagan bu asarga muallif tomonidan tuzilgan dunyo xaritasi ham ilova qilingan. O’sha davr turkiy xalqlar tilining lingvistik, grammatik, fonetik, morfologik, frazeologik xususiyatlari keng tahlil etiladi. Asarda urug‘ va qabilalarga doir etnografik xulosalar, maqollar, matallar, hatto astronomiyaga oid kuzatishlar beriladi.

Davomi 6-betda

30-iyun — Yoshlar kuni

SHIJOATLI YOSH TADBIRKORLAR

IQTISODIYOT RIVOJINI YUKSAK POG‘ONAGA OLIB CHIQADI



Yurtimizda 30-iyun — “Yoshlar kuni” munosabati bilan “Yoshlar oyligi” e‘lon qilinib, turli tadbir hamda loyihalar, xususan, intellektual tanlovlar, uchrashuvlar, sport musobaqalari, gala konsertlar o‘tkazilmoqda.

Davomi 5-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz_uz_news

O‘ZARO MUNOSABATLARNING RIVOJLANISHI IKKI XALQ MANFAATLARIGA XIZMAT QILADI

Eronning yetakchi ommaviy axborot vositalari oliy darajadagi O‘zbekiston — Eron sammiti haqida

Boshlanishi 1-betda

Gazeta, shuningdek, Eron va O‘zbekiston o‘rtasida o‘zaro hamkorlikka oid qator hujjatlar imzolangan haqidagi ma’lumotlarni ham mustariylar e’tiboriga havola qilgan.

Nashr Eron Prezidenti Ibrohim Raisiyning “Tehronning qo’shni davlatlar bilan aloqalarini kengaytirishiga hech qanday to’siq yo’q, O‘zbekiston bilan munosabatlarni rivojlantirish esa ikki xalq manfaati uchun xizmat qiladi”, degan so’zlarini iqtibos sifatida qalamga olgan.

Ushbu gazetada chop etilgan navbatdagi “Farovon kelajak uchun qayta ishga tushirish” sarlavhali maqolada O‘zbekiston Prezidentining Eron Oliy diniy rahbari Oyatulloh Sayid Ali Xomaneiy bilan uchrashuvi tafsilotlari qalamga olingan.

“Ali Xomaneiy Eron va O‘zbekiston o‘rtasidagi misli ko‘rilmagan tarixiy, madaniy va ilmiy aloqalarini ta’kidlab, ushbu umumiy asoslardan turli sohalarda ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlash uchun foydalanish zarurligini ta’kidladi”, deb yozadi nashr.

Gazeta O‘zbekiston yetakchisining “Umid qilamizki, Tehronda bo‘lib o‘tgan muzokaralar tufayli biz muhim qadamlar tashlab, savdo, transport, fan-texnika va turizm sohaslaridagi hamkorlikni munosib darajaga ko’tara olamiz”, degan fikrlarini ham o‘quvchilar e’tiboriga havola qilgan.

Eronning markaziy bosma nashrlaridan biri — “Iran Daily” gazetasida bosilgan maqolada O‘zbekiston tashqi siyosatida jiddiy o‘zgarishlar ro’y bergani, konstruktiv xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, xorijiy davlatlar, birinchi navbatda, qo’shnilar bilan do’stona va o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishda salmoqli natijalarga erishilgani alohida qayd etilgan.

O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy yutug‘i Markaziy Osiyoda yaxshi

qo’shnichilik munosabatlarni rivojlantirishdagi tub o‘zgarishlardir, deyiladi nashrda.

“Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari o‘rtasida ochiq va ishonchli siyosiy muloqotni mustahkamlash natijasida suv resurslaridan foydalanish, transport kommunikatsiyalari, chegaradan o’tish, chegara hududlarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish kabi ko‘plab murakkab muammolarga yechim topildi”, deb yozadi gazeta.

O‘zbekiston rahbarining Eronga rasmiy tashrifi “Newspaper Iran” gazetasi tomonidan ham keng yoritildi. Jumladan, ushbu gazetada e’lon qilingan maqolada yozilishicha, Islom inqilobi yetakchisi uzoq tanaffusdan so’ng ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar jonlanayotganidan mamnunligini ta’kidlagan. Eron Turkmaniston va Afg‘oniston orqali O‘zbekistonda dengiz bilan bog‘lash imkoniyatiga ega.

Xabar qilinganidek, O‘zbekiston — Eron uchrashuvida savdo, innovatsiyalar va yuqori texnologiyalar, sarmoya, sanoat kooperatsiyasi, transport va kommunikatsiyalar, turizm va madaniy-gumanitar almashinuv kabi sohalarda hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha amaliy qadamlar belgilandi.

Gazetada qayd etilganidek, tashrif davomida O‘zbekiston va Eron o‘rtasida imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitim, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va Eron Milliy standart tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlik dasturi, Texnologiyalar va innovatsiyalar sohasida hamkorlik bo‘yicha Harakatlar rejasini singari muhim hujjatlar imzolandi.

“Shuningdek, Sport sohasida hamkorlik bo‘yicha qo’shma chora-tadbirlar rejasini, Nizolarni hal etish va arbitraj to‘g‘risida anglashuv memorandumini, Qayta sug‘urtalash sohasida hamkorlik bo‘yicha fakultativ bitim va boshqa hujjatlar ham imzolandi”, deyiladi manbada.



Maqolada ta’kidlanishicha, ikki mamlakatning oliy martabali delegatsiyalari qo’shma uchrashuvida Eron Prezidenti O‘zbekiston bilan munosabatlarni ikki xalq e’tiqodiga asoslangan tarixiy, sivilizatsiyalashgan munosabatlar sifatida tavsiflab, ikki mamlakatning hamkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi yaxshi imkoniyatlarini eslatib, ushbu tashrifi Eron va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirish yo‘lidagi muhim qadam deb atadi.

Eronning ingliz tilida chop etiladigan “Iran News” gazetasida ushbu tashrif haqida e’lon qilingan maqolada O‘zbekistonning nafaqat mintaqaviy, balki global kun tartibini shakllantirishga qo’shgan hisssasi, global hamjamiyatning xavfsizligi, ravnaqi va barqaror rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan xavf va tahdidlarga qarshi kurashishning

jamoaviy mexanizmlarini yaratishga qaratilgan sa’y-harakatlari alohida qayd etildi. Nashr mamlakatimizning BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi a’zosi etib saylanishini muhim voqea sifatida e’tirof etgan.

Eronning eng yirik kundalik iqtisodiy nashrlaridan biri — “Sobh Eqtesad” gazetasi o‘z mustariylari e’tiborini ulkan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida O‘zbekiston mintaqaning ochiq iqtisodiyotga ega ilg‘or davlatlaridan biriga aylanayotganiga qaratdi.

“Islohotlar jarayonida xususiy investitsiyalar ilgari “yopiq” hududlarga faol jalb etila boshlandi. Avval 100 foiz davlat mulki hisoblangan aviatsiya sanoatida xususiy sektor uchun katta imkoniyatlar ochildi. Shu bilan birga, IT, turizm, ta’lim, tibbiyot kabi jadal rivojlanayotgan sohalarda O‘zbekiston mintaqaviy xabga aylanib bormoqda, bu

ham sarmoya uchun keng yo‘l ochmoqda”, deb yozadi fors nashri.

“Donya-e-Eqtesad” gazetasida bosilgan ushbu mavzudagi navbatdagi materialda so‘nggi yillarda jahon taraqqiyotidagi salbiy tendensiyalarga qaramay, O‘zbekiston tashqi savdosi yuqori sur’atlarda o’sib borayotgani ta’kidlangan. Mamlakat Markaziy Osiyoda iqtisodiyot va savdoning lokomotiviga aylandi.

“Mamlakatda eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman, tashqi savdo balansini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlardan kelib chiqib, 2022-yilda respublika tashqi savdo aylanmasi 50 milliard dollarni tashkil etib, 2021-yilning shu davriga nisbatan 18 foizdan ortiq o’sishga erishdi”, deyiladi manbada.

“Sharq” Strategik tadqiqotlar instituti tomonidan e’lon qilingan tahliliy maqolada O‘zbekistonning iqtisodiy ko‘rsatkichlari iqtisodiyot rivoji, mamlakatning mintaqaviy va xalqaro savdodagi roli ortib borayotganini yaqqol ko‘rsatib turibdi, deb yozilgan.

“Shu nuqtayi nazardan qaraganda, geosiyosiy o‘zaro bog‘liqliklar bilan birga Eron bilan madaniy va tarixiy o‘xshashliklarga ega bo‘lgan O‘zbekistonni rasmiy Tehronning muhim biznes hamkori deb hisoblash mumkin”, deyiladi nashrda.

Maqolada, shuningdek, O‘zbekiston va Eron o‘rtasidagi o‘zaro savdo bo‘yicha statistik ma’lumotlar hamda mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish istiqbolari haqidagi muhim ma’lumotlar qalamga olingan.

Xalqaro munosabatlar bo‘yicha strategik kengash Eronning Markaziy Osiyo mamlakatlariga dengizga chiqish imkoniyatini ta’minlash bo‘yicha noyob geografik joylashuvi har doim ikki tomonlama munosabatlardagi eng muhim iqtisodiy afzallik hisoblanganiga e’tibor qaratadi.

“Markaziy Osiyoning sanoat, iqtisodiy va savdo markaziga aylanib borayotgan O‘zbekiston savdo aloqalarini diversifikatsiya qilish uchun Eron orqali eng xavfsiz, eng qisqa va qulay yo‘llardan foydalanishi mumkin, — deydi kengash ekspertlari. — Bundan tashqari, O‘zbekistonning Afrika, Janubi-sharqiy Osiyo va hatto Janubiy Amerikadagi yangi bozorlarga chiqish istagi ham transport masalasini hal etishning ahamiyatini oshirmoqda”.

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Eronga rasmiy tashrifi munosabati bilan “Trends” iqtisodiy jurnalining yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va erishilgan yutuqlarga bag‘ishlangan maxsus soni ham chop etilganini alohida ta’kidlash joiz.

“Dunyo” AA

Tehron



ISLOHOTLAR SAMARASI

YANGI O‘ZBEKISTONNING IJTIMOIY HIMOYA TIZIMI

Bunda aholining daromadini oshirish va ehtiyojmandlarga madad berish asosiy mezon etib belgilangan

Gulnoza SATTOROVA,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti bosh ilmiy xodimi,
yuridik fanlar nomzodi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar dinamikasiga mos ravishda aholini ijtimoiy himoyalash, samarali ijtimoiy siyosat yuritishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu boradagi chora-tadbirlarni hayotga tatbiq etishda, avvalo, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimiz, tarixiy an’analarimiz, milliy ruhiyatimizga mos yo‘ldan borilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, jahon tajribasiga, rivojlangan mamlakatlar erishgan yutuqlarni o‘zlashtirishga urg‘u berilayotir.

“Inson qadri uchun” euzu g‘oyasi atrofi-da birlashib, yuksak maqsad — demokratik va erkin yangi O‘zbekistonda barpo etish yo‘lida sobitqadamlik bilan amalga oshirilayotgan keng qamrovli va jadal islohotlarni xalqimiz har tomonlama qo‘llab-quvvatlayotgani quvonarlidir.

Yurtimizda mustaqillik yillarida yaratilgan milliy ijtimoiy ta’minot tizimi doirasida fuqarolarning moddiy va pensiya ta’minotini yaxshilash, ularga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, uy-joy bilan ta’minlash, bolalar va nogironliligi bor shaxslar huquqlarini kafolatlashga oid qonunlar va boshqa me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ehtiyojmand oilalar uchun manzilli qo‘llab-quvvatlash choralarini ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

Ushbu sohaning rivojlanish jarayoni davlat va jamiyat imkoniyatlarini hisobga olgan holda, bosqichma-bosqich izchil amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda gender tenglik, boqimandalik va ijtimoiy adolat haqidagi zamonaviy qarashlarga zid bo‘lgan me’yorlarga bosqichma-bosqich barham berilyapti. Shu taxlit o‘tkazilgan islohotlar natijasida jamiyatning ehtiyojmand qismi davlat ijtimoiy himoya tizimiga kiritilgan bo‘lib, unda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy usuli sifatida daromadlar miqdori ko‘paytirilishi hamda fuqarolarga moddiy ko‘mak beri-

lishi ko‘zda tutilgan. Shunisi ham e’tiborliki, mamlakatimizda boshqa davlatlardagi kabi barqarorlashtirish aholi daromadlarini cheklash hisobiga emas, balki ijtimoiy adolat prinsiplariga tayangan holda manzilli yangi ijtimoiy yordam mexanizmlarini yaratish orqali, iqtisodiy vaziyat va imkoniyatlar e’tiboriga olingan holda amalga oshirib kelinyapti.

Bozor munosabatlari tomon harakat qilingani sari ijtimoiy siyosatning ustuvor jihatlarini, aholiga ijtimoiy ko‘mak berish va uni himoya qilish choralarini ham o‘zgarib boradi. Bugungi kunga kelib, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda yangi bosqich, ya’ni ijtimoiy himoyalash vositasini chuqurlashtirish, uni o‘zgarib borayotgan zamon talablariga, sharoitga moslashtirish zarurati yuzaga keldi.

Ta’kidlash joizki, yurtimizda ijtimoiy davlatga xos bo‘lgan xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan harakatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kambag‘allik mavjudligi tan olindi va uni kamaytirish bilan bog‘liq bo‘lgan davlat organi tashkil etildi. Ijtimoiy yordamning yangi shakllari joriy qilindi va moddiy-ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ko‘lami bir necha barobar ko‘paytirildi. Ushbu islohotlarni o‘zida mujassamlashtirgan aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni va kompleks chora-tad-



birlarni belgilab olgan 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiya qabul qilindi. Ushbu hujjat bilan milliy ijtimoiy himoya siyosatining keyingi rivojlanish yo‘nalishlari belgi-

lab berildi. Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tashkil etilib, bu sohadagi masalalarda yangicha yondashuv belgilandi.

Aslida, o‘zining huquqiy tabiatiga ko‘ra sug‘urtalash aholini ijtimoiy himoyalash tizimining tarkibiy elementi hisoblanadi va bu tizimda aholining bevosita ishtirokini nazarda tutadi. Davlatning odamlar uchun munosib turmush darajasini yaratishi, barcha uchun teng imkoniyatlar belgilashi, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironliligi bor shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga oid vazifalari yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham o‘z aksini topdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda bo‘lib o‘tayotgan demokratik jarayonning eng muhim bosqichi bo‘lmish muddatidan ilgari Prezidentlik saylovida aholini ijtimoiy himoyalash masalalari ustuvor o‘ringa qo‘yilgani e’tiborlidir. Siyosiy partiyalardan ko‘rsatilgan nomzodlar o‘z Saylovoldi dasturida mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan siyosatni izchil davom ettirish bilan bog‘liq bo‘l-

“

Aslida, o‘zining huquqiy tabiatiga ko‘ra sug‘urtalash aholini ijtimoiy himoyalash tizimining tarkibiy elementi hisoblanadi va bu tizimda aholining bevosita ishtirokini nazarda tutadi. Davlatning odamlar uchun munosib turmush darajasini yaratishi, barcha uchun teng imkoniyatlar belgilashi, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironliligi bor shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga oid vazifalari yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham o‘z aksini topdi.



gan bandlik, nogironliligi bor shaxslarga va pensionerlarga qo‘shimcha yordam ko‘rsatish, ijtimoiy xizmatlar va nafaqalar ko‘lamini yanada kengaytirish, ijtimoiy adolat, ijtimoiy tenglik mezonlariga mos keladigan demokratik ijtimoiy davlatni barpo etish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish yo‘nalishlarida qator taklif va tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Dunyo amaliyotida ijtimoiy davlat maqomiga ega davlatlar iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan. Davlatning boshqaruv tizimi ijtimoiy yo‘naltirilgan, fuqarolik jamiyati har tomonlama shakllangan, davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlarni amaliyotga joriy etish tajribasi tizimlashtirilgan. Shu bilan birga, mazkur mamlakatlar har bir fuqarosiga munosib turmush sharoitini ta’minlash, yashash uchun teng imkoniyatlar yaratish hamda o‘z fuqarolari oldida ko‘plab ijtimoiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ham bu borada keng qamrovli islohotlar amalga oshirilyapti. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan mutlaqo yangi boshqaruv tizimini joriy etish maqsadida ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ko‘lami va turlarini kengaytirish, tizim samaradorligi va manzilliligin oshirish orqali aholining ko‘makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta’minlash, aholining ijtimoiy sug‘urta mexanizmlari bilan qamrab olinishini kengaytirish masalalarini hal etish Agentlikning ustuvor vazifasi etib belgilandi.

Ilg‘or xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy davlat tamoyillari qanday hal etilgani borasidagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, dun-

yoda ijtimoiy sug‘urta tizimi keng rivojlangan bo‘lib, aholi turmushini yaxshilashda aynan sug‘urta tamoyilidan foydalanilgan. Umuman olganda, dunyoda mavjud pensiya tizimlarining turli modellari sug‘urta xizmatlariga bog‘langanini ko‘ramiz. Ular uchta asosiy strategiyaga asoslangan, ya’ni solidar, jamg‘arib boriladigan va aralash. Birinchisi pensionerlarning minimal darajadagi hayotini ta’minlashga qaratilgan, keyingi ikkitasi esa majburiy va ixtiyoriy sug‘urta tamoyillariga tayangan. Eng yuqori miqdorda pensiya to‘lanadigan sug‘urta to‘lovlarini nazarda tutilgan pensiya tizimi mavjud bo‘lgan ilg‘or davlatlar ro‘yxatiga Niderlandiya, Daniya, Shvetsiya, Singapur, Norvegiya, Avstraliya kiradi. Ularda nodavlat korporativ va ixtiyoriy sug‘urtalash davlat ijtimoiy siyosatiga integratsiya qilingan.

Ijtimoiy himoya davlatimiz tomonidan yuritilayotgan ijtimoiy siyosatning muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lgani sababli uning huquqiy asoslari ushbu ustuvorlikka to‘la mos bo‘lishi zamon talabidir. Yurtimizda ro‘y berayotgan bugungi muhim siyosiy jarayonlarda xalqimiz bu borada yuksalishga asos bo‘ladigan yangi-yangi reja va dasturlarni kutayotganiga shubha yo‘q. Tabiiyki, xalqimizning ana shunday itilishi va orzu-niyatlarini ro‘yobga chiqarish, har bir insonning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya etish, kafolatli daromad manbai, tibbiy xizmat va uy-joy, sifatlil ta’lim bilan ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish va ehtiyojmand aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasidagi islohotlar yanada takomillasadi. Shuningdek, yurtimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarishga mustahkam poydevor bo‘ladi.

ADOLATLI KELAJAKNI TANLAYMIZ

ADOLAT
SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Robaxon Mahmudovanning Saylovoldi dasturida to‘qqizta yo‘nalish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlar belgilab olingan. “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining dasturlariga hamohang va uyg‘un bu yo‘nalishlarda Vatanimiz taraqqiyoti yo‘lida demokratik, huquqiy, ijtimoiy davlat va barcha uchun farovonlik ta‘minlangan adolatli fuqarolik jamiyatini qurish maqsadi bayon etilgan. Maqsadga erishish yo‘li nimalardan iborat? Ular jamiyatimizda qanday yangiliklarga, o‘zgarishlarga yo‘l ochib beradi? Ushbu masalalar, ayni paytda malakali ekspertlar tomonidan jiddiy tahlil qilinib, ular haqida turli fikr-mulohazalar bildirilmoqda. Quyida nomzodning Saylovoldi dasturi xususida bildirilgan fikr-mulohazalardan ayrimlarini e‘tiboringizga havola qilamiz.



Xolidjon KOMILOV,
O‘zbekiston Qahramoni,
senator, Tibbiyot xodimlarining
kasbiy malakasini rivojlantirish
markazining oftalmologiya
kafedrasini professori:

— “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Robaxon Mahmudovanning Saylovoldi dasturi to‘rtinchi yo‘nalishi sog‘liqni saqlash tizimiga bag‘ishlangan. Unda, jumladan, **davlat hisobidan ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar va dori vositalari ro‘yxatini takomillashtirish, ijtimoiy dorixonalarni rivojlantirish, og‘ir kasalliklarni davlat tomonidan davolashni kengaytirish** masalalariga alohida ahamiyat qaratilgan. Bu masalalarga alohida e‘tibor berilishi bejiz emas. Negaki, fuqarolarga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat darajasi takomillashtirilishi muhim. Chunki tibbiy xizmatlar rivojlanmasa va bu ish davlat tomonidan amalga oshirilmasa, sog‘liqni saqlash tizimida turli murakkabliklar, qiyinchiliklar kelib chiqadi. Kasalliklarni davolash sifati ham, fuqarolarning tibbiyot tizimiga ishonchi darajasi ham pasayadi. Ayni paytda dori vositalari ro‘yxatini takomillashtirish borasida ham shunday fikrlarni aytilish mumkin.

“

E‘tibor bering, yurtimizga har xil dori vositalari kirib kelaversa, bu dori vositalarining aholi sog‘lig‘ini yaxshilash o‘rniga zararli tomonlari mavjud bo‘lsa, xo‘sh, bunga kim javob beradi? Shunday ekan, davlat tibbiyot tashkilotlarining xizmat faoliyatini takomillashtirish va dori vositalari ro‘yxatini davlat tomonidan qat‘iy e‘tibor bilan shakllantirish hayotiy zarurat hisoblanadi.

Dasturda **nodavlat tibbiyot tashkilotlarini tijorat tashkilotidan notijorat tashkilotiga o‘tkazish** masalasi ham o‘rtaga tashlangan. Bu ayni yuqoridagi masalani ijobi hal qilishning yana bir samarali usuli hisoblanadi. Chunki tibbiyot tashkiloti butunlay tijorat tashkilotiga aylansa, mablag‘ ketidan quvish boshlanadi. Mablag‘ ketidan quvish esa sog‘liqni

saqlash tizimida ahvolni qiyinlashtiradi, ijtimoiy maqsadlardan tijoriy maqsadlar ustun qo‘yilishiga sabab bo‘ladi. Tizimda turli illatlarning yuzaga kelishiga omil yaratadi. Shuning uchun ham ularni notijorat tashkilotga aylantirish maqbul yo‘l ko‘rinadi. Bu amaliyot Janubiy Koreya va boshqa qator rivojlangan davlatlar tajribasiga to‘la mos keladi.

Dasturda og‘ir kasalliklarni davlat tomonidan davolashni kengaytirish masalasi ham to‘g‘ri qo‘yilgan, deb hisoblayman. Chunki shunday kasalliklar borki, ulardan forig‘ bo‘lish uchun har qanday fuqaro yoki oilaning imkoniyati, kuchi yetavermaydi. Ba‘zan esa jamiyatda epidemiya yoki pandemiyani yuzaga keltiradigan kasalliklar paydo bo‘ladi. Bu esa o‘z-o‘zidan og‘ir kasalliklarni va pandemiya tufayli yuzaga kelgan asoratli kasalliklarni davolashda davlatning faoliyatini kengaytirishni talab qiladi. Qolaversa, aholining kafolatlangan tibbiy xizmatlardan foydalanish masalasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham o‘z aksini topganki, bu nomzodning dasturidagi ayni masalada ham ifodalangan.

Saylovoldi dasturidagi **farmatsevtika va tibbiyot xodimlari orasidagi yashirin kelishuvlar ortidan bemorlarga haddan ziyod dorilar sotib olishga ta’sir ko‘rsatish yuqorilangani, O‘zbekiston antibiotiklar iste’moli bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda ekani** haqidagi fikrlar ham hech kimni e‘tiborsiz qoldirmaydi. Afsuski, bunday salbiy holatlar hayotimizda mavjud va ularni bartaraf etish zarur. Axir bunday kelishuvlar oqibatida fuqarolarning qanchadan-qancha mablag‘lari ko‘kka sovuriladi, eng achinarlisi, fuqarolarimizning sog‘lig‘iga ziyon yetadi. Shuning uchun ham nomzod o‘z Saylovoldi dasturida **dorilarning yagona elektron bazasini yanada takomillashtirish** masalasini o‘rtaga qo‘yadi. Bu orqali dori-darmonlarning noqonuniy aylanmasini, farmatsevtika va tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi yashirin kelishuvlarni hamda dorilar narxining asossiz oshirilishini bartaraf etish mumkin, deb hisoblaydi.

Umuman olganda, sog‘liqni saqlash tizimini ijtimoiy davlat tamoyiliga muvofiqlashtirish va shu asosda “**O‘zbekiston Respublikasining Sog‘liqni saqlash kodeksi**” loyihasini yanada takomillashtirish masalasi dasturdagi asosiy yo‘nalishlardan biri qilib belgilangan.

Nomzod dasturidagi yana bir muhim masala, mamlakatimizda “**aqlii tibbiyot**” tizimini shakllantirishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish, tibbiyot sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni kengaytirish bilan bog‘liq. Zero, bugungi kunda dunyo tibbiyotining ilg‘or usullari bilan tanishish, xorijiy davlatlarning sog‘liqni saqlash tizimidagi yutuqlaridan samarali foydalanish, aholimizning sog‘lig‘ini yanada yaxshilash uchun “aqlii tibbiyot”dan, telemeditsinadan, zamonaviy axborot-texnologiyalaridan foydalanish hayotiy zaruratga aylangan. Bu esa bugungi islohotlarimizning, aholi salomatligini saqlashning muhim shartlaridan biridir. Shu sababli, dasturdagi bunday g‘oyalarni to‘liq qo‘llab-quvvatlayman.

Ismoil SAIFNAZAROV,
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti professori, falsafa
fanlari doktori:

— Yangilangan Konstitutsiyamizning 52-moddasida **davlat o‘qituvchilarning sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qiladi**, ularning ijtimoiy va moddiy jihatdan farovonligi, kasbiy jihatdan o‘shishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi, degan norma belgilangan.

Shundan kelib chiqib, “Adolat” SDP nomzodi o‘z Saylovoldi dasturida **o‘qituvchining obro‘-e‘tibori — bu avvalo, millatning, butun xalqning obro‘-e‘tibori ekaniga alohida urg‘u bermoqda**. Partiya ham o‘z elektoratining salmoqli qismini tashkil etgan pedagog xodimlarning nufuzini oshirish hamda yuksak maqomini belgilash orqali ularning jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlashga qaratilgan huquqiy choralarini ko‘rish tarafdori. Shu maqsadda **o‘qituvchining maqomiga oid qonunning tez fursatda qabul qilinishi** nomzodning dasturida ustuvor masala sifatida e‘tirof etilgan.



Inna KORJIKOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati, O‘zbekiston
“Adolat” SDP fraksiyasi
a‘zosi:

— Mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o‘rni alohida ahamiyatga molik masaladir. Xotin-qizlarga munosabat ma‘lum muddatigina talab etadigan masala emas. Bu doimiy izchillikni, muntazam e‘tiborni va qat‘iyatni talab etadigan masala. Zero, har qanday jamiyatning darajasi uning ayollarga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi, degan hikmat bejiz aytilmagan. Ayollarimizning oilada tutgan o‘rni beqiyos. Oqila ayollar o‘z mehiri bilan oiladagi muhitni, qolaversa, butun jamiyatdagi muvozanatni saqlab turadi.

Nomzod dasturida adolatli jamiyat va huquqiy davlat qurish jarayonida ayollar va erkaklarning teng huquqliligini ta‘minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar yaratish, huquq va qonuniy manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlashga oid qonun hujjatlarini ishlab chiqish va takomillashtirish o‘z faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida qayd etilgan.

Nomzod tomonidan xotin-qizlarning bandligini ta‘minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa, qishloq joylaridagi xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka,

Qutbidin BURHONOV,
Oliy Majlis Senatining
Mudofaa va xavfsizlik
masalalari qo‘mitasi raisi:

— Ma‘lumki, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining dasturida “**Oliy qadriyat bu — inson, uning huquq va erkinliklaridir!**” degan tamoyil mustahkamlangan. Bu tamoyil partiya faoliyatining asosiy g‘oyalardan biri qilib olingan. Shu o‘rinda savol tug‘iladi, partiya siyosiy platformasida nima uchun inson va uning huquqlari, erkinliklari oliy qadriyat darajasida ulug‘lanmoqda? Javobi ma‘lum — inson ulug‘lanmagan, uning huquqlari, erkinliklari kafolatlanmagan joyda qadriyat ham, adolat ham bo‘lmaydi. Inson qadriyati, haq-huquqlari, erkinliklari qonunlar asosida belgilanadi. Qonunlar esa adolatli bo‘lmog‘i kerak.

Prezidentlikka nomzod dasturining birinchi yo‘nalishi aynan shu masalalarga, ya‘ni “**Huquqiy davlat qurish**”ga bag‘ish-



Ma‘lumki, milliy iqtisodiyotimizning barqaror o‘shishi, eng avvalo, zamonaviy ilg‘or texnologiyalarning hayotga tatbiq etilishi bilan bog‘liq. Zamonaviy ilg‘or texnologiyalarni hayotga tatbiq etish uchun esa ta‘lim, ilmfan, innovatsiyalarni rivojlantirish talab etiladi. Shuning uchun dasturda **fan — ta‘lim — ishlab chiqarish** tizimlarining uzviy aloqadorligini ta‘minlash masalasi zamonaviy ilg‘or texnologiyalarni yuzaga keltirishning asosi sifatida belgilanadi.

hunamandchilikka keng jalb etishga alohida e‘tibor qaratilgani ham e‘tirofqa molik.

Eng muhimi, nomzod jamiyatda xotin-qizlar faolligi va rolini oshirishda bardavom bo‘lib, barcha bo‘g‘indagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida xotin-qizlar vakillarini ko‘paytirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Ma‘lumki, yangilangan Konstitutsiyamizda oila institutiga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladan, oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hamda jamiyat va davlat muhofazasida ekanligi, davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi, onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi oilani qo‘llab-quvvatlash, mustahkamlash va himoya qilish, an‘anaviy oilaviy qadriyatlarini saqlash bo‘yicha choralar ko‘rish kerakligi alohida belgilangan.

Shuningdek, nomzod o‘z Saylovoldi dasturida mazkur hayotbaxsh konstitutsiyaviy normalardan kelib chiqqan holda, “**Onalik, otalik va bolalikning davlat muhofazasi to‘g‘risida**”gi qonunni qabul qilish tashabbusini ilgari surmoqda.

Bu esa, o‘z navbatida, oila institutini yangi konstitutsiyaviy normalar asosida mustahkamlashni hamda yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Nomzod oilalarda teng huquqli va adolatli munosabatni, ma‘naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash va sog‘lomlashtirishning samarali mexanizmlarini yaratishga alohida e‘tibor qaratgan.

Buning uchun, avvalo, oilaviy ajrimlarning oldini olish choralarini ko‘rish kerak. Shuningdek, oila institutini mustahkamlash bo‘yicha milliy indekslarni ishlab chiqish zarur.

Nomzod dasturida reproduktiv salomatlik va demografik rivojlanishni barqaror ta‘minlash maqsadida “**Sog‘lom oila — sog‘lom jamiyat 2030**” dasturini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish rejasini ham alohida qayd etib o‘tgan. Chindan ham, jamiyatning sog‘lomlashishi oiladan boshlanadi. Sog‘lom oilalar umumlashib, yagona sog‘lom jamiyatni tashkil etadi. Bu yerda gap, albatta, oilaning ham jisman, ham ma‘nan sog‘lomligi haqida ketayotgani masalaning dolzarbligini yanada oshiradi, deb o‘ylayman. Yuqoridagilardan kelib chiqib, barchani nomzodimizni qo‘llab-quvvatlashga chaqiraman!



langan. Shu sababli, bu yo‘nalishda, avvalo, “**Biz “Qonun ustuvorligi — adolatli jamiyat qurishning muhim sharti!” degan tamoyilni jamiyatning har bir a‘zosi, ayniqsa, mansabdor shaxslar faoli-**

Hammamizga ayonki, har qanday jamiyatda ta‘limni rivojlantirmasdan turib, ilmfan sohasida yangiliklarni yaratib bo‘lmaydi. Ilmfan sohasida yangiliklar bo‘lmasa, innovatsiyani yuksaltirish, yangi texnologiyalar yaratish qiyin kechadi. Bularsiz esa jamiyat taraqqiyoti yuzaga kelmaydi. Shu sababli nomzod dasturida ta‘lim, ilmfan, innovatsiyani yanada rivojlantirish masalasini kundalik hayotimizning asosiy vazifalaridan biri, deb belgilaydi. Nafaqat belgilaydi, balki ta‘lim, ilmfan va innovatsiyani rivojlantirish pirovard maqsad — adolatli jamiyat va huquqiy davlat barpo etishning asosiy omili, deb qaraydi.

Bugungi kunda ta‘lim tizimi va ilmfan o‘rtasida, ilmfan bilan innovatsiya o‘rtasida uzviy bog‘lanishlar, hamkorliklar kutilganidek natija bermoqda, deb ayta olmaymiz. Shu bilan birga, olimlarning ilmiy va innovatsion ishlarni tijoratlashtirish, ya‘ni ularni ishlab chiqarishga jalb qilish darajasi yuqori emas. Boshqacha aytganda, ilmfan yangiliklari bilan sanoat, ishlab chiqarish o‘rtasida uzulish mavjud. Yaratilayotgan ilmfan kashfiyotlari, ixtirolarini hayotga tatbiq etish ishlarini jadallashtirish lozim.

Bu darajani yuksaltirish uchun nomzod dasturida yana bir jarayonga —

iqtisodiyotning haqiqiy drayveri bo‘lgan injener, texnolog, agronom-mexanizator kabi mutaxassislar sonini ko‘paytirish va malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash masalalariga alohida e‘tiborni qaratadi. Bu bejiz emas. Chunki ushbu sohalardagi aksariyat ilg‘or fikrlar, g‘oyalalar, ixtiro va kashfiyotlar aynan shu sohalar vakillarining faoliyati tufayli yuzaga keladi.

Nomzod dasturida e‘tiborni maktab ta‘limini xalqaro ta‘lim dasturlari asosida izchil isloh qilish jarayoniga ham qaratadi. Buning sababi aniq, chunki ilmfanning, innovatsion yangiliklarning asosi birinchi navbatda, xalq ta‘limi, maktablarda o‘qitish tizimini yaxshilashdan boshlanadi. Ya‘ni hamma narsa ta‘lim dasturlaridan boshlanadi.

Prezidentlikka nomzod Saylovoldi dasturida bu yo‘nalishdagi asosiy maqsadni mamlakatimizda innovatsion rivojlanishni jadallashtirishdan, iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridan innovatsiyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng tatbiq qilishdan, inson kapitalini, ilmfan va innovatsiya sohalarni rivojlantirishdan iborat, deb belgilaydi. Yurtimiz, Vatanimiz taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan bunday g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlayman.



Zuhra IBRAGIMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi Spikerining
o‘rinbosari, “Adolat” SDP
fraksiyasi rahbari:

— An‘anaviy sotsial-demokratiyaning ijtimoiy adolat tamoyili va keng ko‘lamli dasturlarining amalga oshirilishini ta‘minlaydigan kuchli ijtimoiy davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlayotgan O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi barcha sohalarida ijtimoiy adolatni qaror toptirishni o‘zining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e‘tirof etadi.

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Robaxon Mahmudovanning Saylovoldi dasturida davlat boshqaruvin takomillashtirish borasida bir qator takliflar ilgari surilmoqda.

Misol uchun, har qanday oila o‘z oila boshqaruvin rejalari asosida amalga oshirib borsa, shubhasiz, o‘sha oila a‘zolarining hayoti farovon, dasturxonni to‘kin, kelajagi nurli bo‘ladi.

Biz yashab turgan jamiyatni ko‘plab oilalardan tashkil topgan ulkan bir oilaga qiyos qilishimiz mumkin. Shunday ekan, jamiyat va davlat boshqaruvi ham mukammallikni, xatosiz ishlashni talab qiladi.

Qolaversa, oila boshqaruvi ham, davlat boshqaruvi ham hamisha tirik organizm kabi yangilanib turadiki, demak, jamiyat

boshqaruvi ham ushbu jarayonda kundankunga shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamon talablariga javob bera olishi kerak.

Ayni shu jihatdan olib qaraganda, nomzodimizning Saylovoldi dasturida **davlat boshqaruvin yanada takomillashtirish, parlamentarizm va parlament demokratiyasini yanada rivojlantirish** yuzasidan bir qator yangi g‘oyalari ilgari surilmoqda.

Xususan, nomzod mahalliy Kengashlarga tuman (shahar) hokimlariga nisbatan ishonchsizlik bildirish huquqini berishni taklif etmoqda. Bu masalaning mohiyati nimada? Bu takliflarning qanday ahamiyati bor?

Kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tayotgan mamlakatimizda so‘nggi yillarda joylarda ijro hokimiyati ustidan samarali nazoratni ta‘minlash maqsadida mahalliy Kengashlarga bir qator vakolatlar berildi. Ijro hokimiyatining mahalliy Kengashlar oldidagi hisobdorligi, byudjet jarayonini nazorat qilish kabi vakolatlar shular jumlasidan.

Biz hududlarda hokimlarning hisobdor bo‘lishi tarafdorimiz. Shu bois, nomzodimizning mahalliy Kengashlarga, hokimlarga ishonchsizlik bildirish huquqini berish borasida ilgari surayotgan taklifini o‘ta dolzarb va muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz. Chunki mazkur tizim ishga tushgan taqdirda hokimlarning ham, mahalliy Kengashlar deputatlarining ham o‘z ishiga mas‘uliyat bilan qarashi, javobgarlik hissi kuchayadi. Bu esa, o‘z navbatida, xalq manfaati va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Shuningdek, Prezidentlikka nomzod Robaxon Mahmudova o‘z Saylovoldi dasturida **mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazilib, takomillashtirish** zarurligini ham bildirgan. Bu ham jamiyat va inson manfaatlariga xizmat qiladigan taklifdir. Chunki adolat ustuvor jamiyatda qabul qilingan har qanday qonun so‘zsiz va samarali ishlashi zarur. Agar amaldagi qonun ishlamasa, bu vaziyat, tahlil etilishi, tegishli xulosalar chiqarilishi va yechimlar berilishi zarur bo‘ladi.

Nomzodimizning Saylovoldi dasturi shunday va shu kabi hayotiy g‘oyalari bilan uyg‘unligi bois, men uni qo‘llab-quvvatlayman. Barchani partiyamizdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Robaxon Mahmudovaga ovoz berishga chaqiraman.

Adolatli jamiyat va huquqiy davlat qurish uchun faqat adolatli qonunlar ishlab chiqish, sud tizimi mustaqilligini mustahkamlashning o‘zi bilan ish bitmaydi. Ayni paytda jamiyatning barcha jabhalarida qonunchilik va insonparvarlik tamoyillariga amal qilish uchun jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ham talab qilinadi. Jamoatchilik nazorati esa siyosiy kuchlar — partiyalarning jamoatchilik va ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorligi natijasida yuzaga keladi. Bizning nomzodimiz ham partiyang jamoatchilik faoliyatini yanada kuchaytirish tarafdori.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentlikka nomzod qonun ustuvor bo‘lgan jamiyatda tinchlik va osoyishtalik hukm surishiga, taraqqiyotning barqaror bo‘lishiga, xalqning davlat siyosatiga va kelajakka ishonchi ortishiga, fuqarolarning Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi yuksak bo‘lishiga ishonadi. Bu ishonch uning Saylovoldi dasturida ham o‘z ifodasini topgan.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTLIGIGA “ADOLAT” SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASIDAN NOMZOD ROBAXON MAHMUDOVAGA OVOZ BERING!



INNOVATSION YONDASHUVLAR

NODIR METALLAR VODIYSI

Abdurauf QORJOVOV,
iqtisodiy sharhlovchi

Boshlanishi 1-betda

— Dunyo miqyosida palladiyga bo‘lgan talab juda yuqori, — deydi Innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish texnologik markazi bo‘limi boshlig‘i Zulfiyar Mirzanova. — Lekin u har doim ham ma‘danlarda yetarli darajada uchramaydi. Olim-mutaxassislarimiz tomonidan mis ishlab chiqarish chiqindi shlam mahsulotlarining qayta ishlangan elektrolit eritmalardan qimmatbaho metallni to‘liq va sof holda ajratib olish yangi texnologiyasi-ning yaratilishi bunga imkon yaratadi. Aslida, ilmiy tadqiqotlar 2018-yilning noyabr oyida boshlangan edi. Asosiy maqsad texnogen chiqindi — elektrolit eritmalarda, u garchi 1 litrda 50 milligramm bo‘lgan taqdirda ham, sof palladiy kukunini ajratib olish usulini ishlab chiqishga qaratildi. Vazifa oshirib bajarildi. Ayni paytda hatto 40 milligramm palladiy bir litr eritmada qolganda ham cho‘k-maga tushirib olinmoqda. Chunki kompleks cho‘ktirish va tozalashning yangi usuli ana shunday samara beriyapti.

Bugungi kunda Yaponiya, Xitoy, Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlari sanoat bozorida palladiydan unumli foydalanib kelinadi. Ular safiga mamlakatimiz ham qo‘shilayotgani import o‘rnini bosish va eksportni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Dunyo bozorida 1 gramm 60 dollardan ortiq baholanadigan mazkur nodir metallni ishlab chiqarish sanoati yildan-yilga takomillashmoqda. Platinadan ham qimmat yuradigan bu nodir metall asosan tibbiyot, elektronika, mashinasozlik va kimyoviy ishlab chiqarish tarmoqlarida keng qo‘llaniladi.

Jamiyat olim va mutaxassislarining uzoq yillik izlanishlari, ilmiy tadqiqotlari tufayli o‘tgan yili platina ishlab chiqarish texnologiyasi bo‘yicha ham mualliflik huquqi qo‘lga kiritildi. Natijada kombinatda olinga nisbatan yer yuzida uch barobar kamroq uchraydigan noyob metallni tayyorlash texnologiyasini joriy etishga yo‘l ochildi. Shu paytgacha dunyoda 5 ta platina ishlab chiqaruvchi davlat bo‘lsa, O‘zbekiston oltinchi mamlakat sifatida ular safiga qo‘shildi.

Bugun jahon bozorida platinaning 1 grammi 31 dollarga baholanadi va narxi tobora oshib boryapti. U qo‘rg‘oshindan 2 barobar zich bo‘lgani holda, o‘tga chidamlilik, elektr o‘tkazuvchanligi, zanglamasligi tufayli kosmos, tibbiyot, elektrotexnika, shishasozlik, aviasozlik, kemasozlik, avtomobilsozlik uchun o‘ta zarur xomashyo sifatida ishlatiladi. Zargarlar esa biri-biridan nafis buyumlarni tayyorlashda uning olovga bardoshli, qattiq hamda o‘ta egiluvchanligi uchun “Rangli metallar malikasi”, deya qadrlaydi.

Yangi loyihalar va xorijiy bozorlarga yo‘l


“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning Nodir metallar va qattiq qotishmalar bo‘yicha ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi mutaxassislari tomonidan olib borilayotgan yangi izlanishlar ham e‘tiborni tortadi. Bu yerda 2016-yildan buyon amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar, laboratoriya sinovlari o‘z samarasini bermoqda. Jumladan, bu yerda besh yillik tadqiqot va mashqatli mehnat evaziga 2022-yilga kelib 99,9 foiz sof holdagi reniy metalli olishga muvaffaq bo‘lindi. Ushbu noyob mahsulot kukunining ajratilishiga, aslida, Mis eritish zavodining nodir metallar ishlab chiqarish sexida tayyorlanadigan perrenat ammoniy asos bo‘ldi.

Mendeleyev davriy jadvalining 75-o‘rnida joylashgan bu metall o‘ziga xos noyob fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega. Masalan, neftni qayta ishlash korxonalari undan katalizator tayyorlashda asosiy komponent sifatida foydalaniladi. Aviasozlik va elektrotexnika sohalari esa detallar uchun asosiy element hisoblanadi. Reniy o‘zining noyobligi tufayli hatto yadro sanoatida ham asqatadi. Unga inson salomatligini tiklashda ham ehtiyoj borligini inobatga oladigan bo‘lsak, kombinat mehnat jamoasi erishgan yutuqning ahamiyati naqadar beqiyos ekani yanada oydinlashadi.

— Asosiy faoliyatimiz volfram va molibden kabi noyob metallar, shuningdek, qattiq qotishma mahsulotlarini ishlab chiqarishdan iborat, — deydi birlashmaning ishlab chiqarish bo‘yicha direktor o‘rinbosari Ulug‘bek Ro‘ziyev. — Tayyorlanayotgan volfram va molibden mahsulotlarining 95 foizi Yevropa mamlakatlariga eksport qilinmoqda Biz mahalliy korxonalar uchun ham o‘tga chidamli mahsulotlar bo‘yicha investitsiya loyihasini amalga oshirishga katta e‘tibor qarataymiz. Mahsulotlar asosan po‘lat ishlab chiqarish, mashinasozlikda va harbiy sanoatda qo‘llaniladi.

Mahalliy bozor uchun metalni qayta ishlash sanoatida ishlatiladigan qattiq qotishmalarga ehtiyoj katta. Masalan, 2019-yilda mahalliyashtirish bo‘yicha uchta loyiha amalga oshirilgan bo‘lsa, 2020-yilda 32 turdagi mahsulot, xususan, mashinasozlik uchun kesuvchi asbob-uskunalar, o‘tga chidamli mahsulotlar, zirhli diskalar o‘zlashtirildi. 2021-yilda yana 30 ta loyiha, jumladan, O‘zbek-koreys ilmiy-texnologik markazi bilan birgalikda o‘tga chidamli mahsulotlar, yangi qattiq qotishmalarni ishlab chiqarish ishlari amalga oshirildi.

Ilmiy asoslangan reja amaliy ishlar bilan uyg‘unlashgan taqdirda ko‘ziangan samarani beradi. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ tomonidan 2022-2024-yillarga mo‘ljallangan Nodir metallar va qattiq qotishmalar ilmiy ishlab chiqarish birlashmasini rivojlantirish hamda yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish dasturi ijrosi buning hayotiy tasdig‘i. Dasturga muvofiq, korxonada umumiy qiymati 61,52 million dollarlik 30 loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Bu tufayli 2024-yilga borib, mahsulot ishlab chiqarish hajmi 3,9 trillion so‘mga yetadi.



O‘shish sur‘ati esa 10,4-martaga oshadi. 164,2 million dollarlik eksport amalga oshirilib, bu borada 5,4 barobar o‘shishga erishiladi.

Mahalliyashtirish dasturi bo‘yicha 132 loyiha o‘zlashtirildi va o‘shish 4,1 barabarga teng bo‘ladi. Umuman olganda, 1 ming 300 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratilishi ko‘zda tutilgan.

Birlashmada 2022-yil va 2023-yilning dastlabki choragida amalga oshirilgan loyihalarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, molibden ishlab chiqarish hajmi 800 tonnadan 1 ming 200 tonnaga yetkazildi. Natijada 17,2 million dollar qiymatda qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarildi, sof foyda 5 million dollarni tashkil etdi. Bunday yutuqqa erishishda o‘tgan yilning may oyida pirometallurgiya sexi tarkibida molibden metallini olish bo‘yicha yangi uchastka faoliyatining hisssasi katta. Ushbu uchastkada olib borilgan samarali tadqiqot ishlari natijasida so‘f holdagi, ya‘ni 99,97 foizli molibden metalli olindi va ishlab chiqarishga joriy etildi. Unga qadar birlashmada 96,4 foizli molibden ishlab chiqarib kelingan. Ahamiyatlisi, uning soflik darajasi qancha oshsa, narxi ham shuncha ko‘tarilib boraveradi. Jahon bozorida o‘tgan yil iyun oyida 1 kilogramm 99,97 foizli molibdenning narxi 46,85 dollarni tashkil etgan edi. Joriy yildagi narxlar ham shu atrofda. Bu korxonada molibden eksportining o‘shish sur‘ati 2,43 foizga oshishi, yiliga 5 milliard so‘mlik foyda keltirishini ko‘rsatadi.

Yana bir e‘tiborli jihati, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi natijasida yangi turdagi kompozit qotishma, ya‘ni metall keramika o‘zlashtirildi. Undan sirpanma

podshipniklar tayyorlash mumkin. Buning uchun temir kukuni va molibden karbidi asosidagi kompozit qotishmalar ishlab chiqarish uchastkasi ham tashkil etildi. Podshipniklarning afzalligi shundaki, ular uzoq muddat xizmat qiladi va shu yerning o‘zida ishlab chiqariyapti.

Masalan, doimo ishlatiladigan sharikli podshipnikning xizmat muddati bir oydan oshmasa, taklif qilinayotgan molibden karbidi asosidagi sirpanma podshipnik undan ikki barobar ortiq xizmat qiladi. Unga bir yilda o‘rtacha 1 ming 500 dona ehtiyoj bo‘lib, bittasining narxi 639 ming so‘m turadi. Avvallari ishlatiladigan bir dona sharikli podshipnik narxi 954 ming 500 so‘m ekanini inobatga olsak, kombinat bir yilda o‘rtacha 473 million so‘mni tejashga erishadi.


Kombinatning Mis eritish zavodi tarkibidagi noyob metallar ishlab chiqarish sexi ham tobora kengayib boryapti. Bu yerda asosan tarkibida miqdori 25 foizdan kam bo‘lmagan molibden kuyindisi hamda tarkibida kamida 69,3 foiz reniy bo‘lgan perrenat ammoniy olinadi. Yaqinda ushbu sexda mavjud

4 ta pech yana 2 taga ko‘paydi. Ular kombinatning o‘zida ishlab chiqarilgan va asosiyi, quvvati xorijnikiga nisbatan 30 foiz yuqori. Pechlarni o‘rnatish ishlari ham kombinatning “OlmaliqmetallurgQurilish” tresti ishchilari tomonidan amalga oshirildi. Shu tariqa molibden kuyindisini kombinatning o‘zida chiqur qayta ishlash yo‘lga qo‘yildi, perrenat ammoniy esa to‘liq eksportga jo‘natilyapti. Kelgusida yangi qurilayotgan 3-mis boyitish fabrikasidan keladigan yarim tayyor mahsulotlar ham ushbu sexda qayta ishlanadi.

Ulkan xazira, yuqori salohiyat va amaliy ishlar uyg‘unligi

Kattaqo‘rg‘on shahridan janubi-sharqda Zirabuloq tog‘larida joylashgan “Ingichka” koni o‘tgan yili “Olmaliq KMK” AJ tasarrufiga o‘tkazildi. Fabrikaning birinchi bosqichi yillik ishlab chiqarish quvvati 100 tonna volfram konsentratini tashkil etadi, 80 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi. Ikkinchi bosqich doirasida yiliga 285 tonna volfram konsentratini ishlab chiqarishga erishiladi.

Volfram — nodir metallar sirasiga kiradi va qattiq qotishmalar uchun asos hisoblanadi. Undan po‘latlarni legirlashda, yeyilishga chidamli va issiqbardosh qattiq qotishmalar olishda foydalaniladi. Shuningdek, aviatsiya, kosmonavtika va elektrotexnikada keng qo‘llaniladi. Zichligi yuqori bo‘lgani uchun undan zirhlar ham tayyorlanadi. Hozirgi kunda jahon bozorida 1 kilogramm volframning narxi — 40 dollar.



Birlashmaning asosiy mineral xomashyo bazasi Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani hududida joylashgan “Ingichka” volfram koni texnogen chiqindilari hisoblanadi. Bu yerda jami 7 ming 203 tonna volfram uch o‘ksidining zaxiralari mavjud. Ularni qayta ishlash va volfram konsentratini ajratib olish hisobiga yangi turdagi yuqori qo‘shilgan qiymatli eksportbop mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi va ilk volfram mahsuloti olindi.

Jizzax viloyati Forish tumanidagi “Uchquloq” qo‘rg‘oshin-rux konini sanoat asosida o‘zlashtirish va Olmaliq tog‘-kon metallurgiya kombinatiga ma‘dan yetkazib berish ishlari 1979-yilda boshlangan. Konda rudani maydalash sexi va unda mehnat qiluvchi konchilar uchun qisqa vaqt ichida kichik sanoat shaharchasi barpo etilgan. Qo‘rg‘oshin, rux rudasi ochiq usulda qazib olinib, vagonlarda Olmalidagidagi kombinatga jo‘natib turilgan. Ammo keyinchalik olib borilgan noto‘g‘ri boshqaruv tizimi hamda iqtisodiyot tanazzulga yuz tutishi oqibatida “Uchquloq” koni yopilib ketgan, ularlarda mehnat qilgan fuqarolar ishsiz qolgan...

Shu yil bahorida konni qayta tiklash loyihasi borasidagi sa‘y-harakatlarga start berildi. O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati hamda Turkiyaning “Esan Eccazibasi” kompaniyasi o‘rtasida mazkur loyihani amalga oshirish bo‘yicha uch tomonlama shartnoma tuzildi. Shartnomaga ko‘ra, konda razvedka ishlari olib borish, rudani qazib olish va qayta ishlash kabi vazifalar amalga oshirildi. Buning uchun 200 million dollar miqdorida



mablag‘ ajratilishi, kamida 600 kishi ish bilan ta‘minlanishi ko‘zda tutilgan.

Bugungi kunda jahon bozorida 1 tonna qo‘rg‘oshin narxi 2 ming 128 dollar, ruxning 1 tonnasi esa — 2 ming 810 dollardan ziyod turadi. Qo‘rg‘oshindan asosan akkumulyator batareyalari ishlab chiqarishda foydalaniladi. Shuningdek, bu mahsulot radioaktiv nurlarni yutishi sababli undan radioaktiv moddalar saqlanadigan idishlar,

rentgen xonalari uchun qurilmalar tayyorlanadi. Bundan tashqari, zanglashdan va mexanik ta‘siridan himoya qilish uchun ham elektr kabellar qo‘rg‘oshin bilan qoplanadi. Rux asosidagi qotishmalar avtomobil salonining ichki qismini bezash uchun, eshik tutqichlari, quflar, nometall va korpuslarni ishlab chiqarishda ishlatiladi. Rux oksidi avtomobil shinalariga qo‘shiladi va bu kauchuk sifatini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladi.

— Kondan ochiq usulda 500 ming tonna yarim tayyor ruda qazib olinib, loyiha doirasida yaqin kelajakda yiliga 500 ming tonna ma‘danni qayta ishlashga mo‘ljallangan zamonaviy boyitish fabrikasi quriladi, — deydi “Uchquloq” koni rahbari Aziz Berkinov. — Fabrikada yiliga 5 ming 400 tonna rux hamda 18 ming 400 tonna qo‘rg‘oshin konsentratini olinadi.

“Olmaliq KMK” AJ boshqaruvi raisining iqtisodiyot, moliya va transformatsiya bo‘yicha o‘rinbosari Feruza Hamidovaning ma‘lum qilishicha, mis va rux ishlab chiqarishdan hosil bo‘ladigan tashlanma eritmalaridan qo‘shimcha noyob metallar ajratib olish bo‘yicha ilmiy izlanishlar natijasini amaliyotga joriy qilish ham rejalashtirilgan. 2023-yilda rux zavodi jamoasi tomonidan 92 ming tonna rux metalli, 105,6 ming tonna sulfat kislotali, 470 tonna kadmii metalli ishlab chiqarish nazarda tutilgan.

Mis asosida rangli metallarni qayta ishlash hamda yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha “Deutsche Innovatsion Texnologiyalar — AGMK” qo‘shma korxonasi tashkil etildi. Qo‘shma korxonada umumiy qiymati 32 million dollar bo‘lgan

mahsulotlarni (yemirilishga bardoshli qoplamalar asosida qattiq qotishmalar, kobalt oksidi, yuqori tozalikdagi indiy va molibden) ishlab chiqarish texnologiyalari o‘zlashtirildi. Ilmiy ishlanmalar asosida yarimo‘tkazgichlar sanoati uchun asosiy material hisoblanuvchi yuqori sof metallarni ishlab chiqarish bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilmoqda.

Koreya Respublikasining “Nanostructured Materials Laboratory” laboratoriyasida yemirilishga bardoshli cho‘yan, po‘lat va modifikatsiyalangan marganesli po‘lat namunalari ishlab chiqilib, sinovdan muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Yangi qotishmalar-ning mexanik xususiyatlari boshqalariga nisbatan 70 foizgacha oshirildi va ishlab chiqarishga joriy etildi.

Rux zavodida ikki xil usulda indiy metallini ajratib olish tajribasi joriy natija berdi. Endilikda uning sanoat darajasida ishlab chiqarishini yo‘lga qo‘yish choralari ko‘rilyapti. Yuqori soflikdagi tellur, selen va rux ishlab chiqarish bo‘yicha laboratoriya ishlari ham yakunlanib, vodород muhitida qizdirish hamda distillyatsiya usulida 99,995 foizli sof namunalar olindi.

Bu kabi loyihalarining milliy sanoatimiz rivoji va eksport salohiyatini oshirishga doir yana ko‘plab ma‘lumotlarini keltirish mumkin. Bu haqda fikr yuritlar ekanimiz, beixtiyor AQSHning Kaliforniya shtati San-Fransisko shahridan uncha uzoq bo‘lmagan “Silikon vodiysi” (yo‘xud “Kremniy vodiysi”) nomi bilan mashhur hudud yodga keladi.

Kaliforniya iqtisodiyotini o‘rganish markazi ekspertlari bergan ma‘lumotlarga ko‘ra, ayni paytda bu yerda dunyoning yuqori texnologiyalar sohasida faoliyat yuritadigan eng yirik 20 ta kompaniyasi, minglab turli firma va tashkilotlar joylashgan. Bir paytlar qishloq xo‘jaligiga moslashtirilgan mazkur hudud San-Fransisko ko‘rfazidan to San-Diyego shahrigacha bo‘lgan 40 kilometr masofaga cho‘zilgan. Vodiyning yuragi esa Palo-Alto-dagi Stenford ilmiy tadqiqotlar universiteti hisoblanadi. Unda 1940-yillardanoq elektronika sohasida ko‘plab izlanishlar olib borilgandi. Elektron hisoblash mashinalarining dastlabki yirik ishlab chiqarish korxonasi ham aynan shu yerda IBM kompaniyasi tomonidan 1956-yilda qurilgan. Bir so‘z bilan aytganda, Silikon vodiysi yuqori texnologik ishlab chiqarish (jumladan, radioelektronika va kosmik kemalar yaratish sohalari) hamda yuksak darajadagi hayot tarzining uyg‘unlashuvini ifoda etuvchi tushunchadir.

Har bir o‘xshatish ko‘p jihatdan mos kelavermasligi mumkin. Olmaliqni hozircha Kaliforniya bilan solishtirib bo‘lmas. Lekin bir umumiylik ko‘zga tashlanadi: yuksak salohiyat va texnologiyalar o‘z samarasini beriyapti. Rejalar esa o‘ta mahobatli va ulkan.

“Olmaliq KMK” AJ boshqaruvi raisi Abdulla Xursanovning qayd etishicha, 2026-yilga borib, mis sanoati klasterini tashkil etish orqali mis va undan boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 3 martaga ko‘paytirish rejalashtirilgan. O‘zbekistonning ushbu sohadan olgan daromadi ayni paytda 2,8 milliard dollarni tashkil etadi. 2026-yilga borib, mis ishlab chiqarish 400 ming tonnagacha oshirilib, daromad turdosh tarmoqlarni hisobga olgan holda 8 milliard dollarga yetkaziladi.

Xalqaro ekspertlarning baholashicha, 2030-yilga borib, dunyo miqyosida transport vositalari, maishiy texnika va qayta tiklanadigan energiya manbalarini ishlab chiqarishning o‘shishi tufayli misga bo‘lgan talab 40 foizga oshadi. Bu mamlakatimiz mis sanoatining istiqbol yanada porloq ekanini namoyon etadi.

Ayni kunda Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida “Yoshlik-1” konini o‘zlashtirish ishlari jadal olib borilyapti. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, loyihalarining umumiy qiymati 15 milliard dollarga teng. 3-, keyinchalik 4- va 5-mis boyitish fabrikalarini, shuningdek, yangi metallurgiya majmuasini barpo etish uning uzviy davomi hisoblanadi.

Mazkur megaloyihalarni amalga oshirishda metallurgiya va nodir metallarni qayta ishlash sohasida dunyoda katta nufuzga ega bo‘lgan kompaniyalar bilan hamkorlik qilish, ularning investitsiyalari va texnologiyalarini joriy etish muhim o‘rin tutadi.

Mavzuga qaytadigan bo‘lsak, tahlillar “Olmaliq KMK” AJda texnogen chiqindilardan nodir mahsulotlar ishlab chiqarish qamrovi va eksporti tobora kengayib borayotganini ko‘rsatmoqda. Mazkur kombinat rahbariyati, olim va mutaxassislarining yuqori ilmiy salohiyati, yuksak texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan innovatsion yondashuvlari dunyoda hozircha muqobili bo‘lmagan noyob metallar “vodiysi”ning yanada barq urishiga zamin yaratmoqda.



YANGI TIZIM — AMALDA

Bir yigitni o‘qitsang bir insonga, bir ayolni o‘qitsang, butun millatga ta‘lim bergan bo‘lasan, degan hikmat bor. Buning zamirida xotin-qizlarning ta‘lim olishi kelajak uchun qanchalik muhimligi yotadi.

Ana shunday ezgu maqsadlar bilan 2022-yildan e‘tiboran oliy ta‘lim muassasasi magistratura bosqichiga to‘lov-kontrakt asosida qabul qilingan va tahsil olayotgan xotin-qizlarning to‘lov-kontrakt summasini davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplab berish tartibi to‘g‘risidagi nizom kuchga kirgan edi.

Bunday imkoniyatning taqdim etilishini yurtimizdagi minglab xotin-qizlar juda katta xursandlik bilan qarshi oldi. Ayniqsa, oila deb atalgan muqaddas qo‘rg‘onni endigina barpo qilgan, magistraturada o‘qish ishtiyoqi bor, lekin moddiy tomondan imkoniyati bo‘lmay turgan talabgorlar uchun kutilmagan yangilik bo‘ldi, desak adashmaymiz.

Ayni kunlarda yangi tizim imkoniyatidan unumli foydalangan xotin-qizlarimiz magistraturada o‘qishning birinchi yilini tamomlamoqda. Biz ularning ayrimlari bilan suhbatlashib, taassurotlari bilan qiziqdik.



XOTIN-QIZLAR HAYOTI VA TAQDIRINI O‘ZGARTIRIB YUBORGAN IMKONIYAT

ORZUM USHALISHI KAMIDA 5 YILGA TEZLASHDI

Maftuna UMARALIYEVA, Namangan davlat pedagogika instituti ta‘lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi yo‘nalishi magistranti:

— Bakalavrni tamomlash arafasida turmushga chiqdim. Shunga qaramay, magistraturaga ham kirish maqsadim bor edi. Lekin turmush o‘rtog‘im ham talabaligini hisobga olib, hozircha bu niyatim ushalmasa kerak, deb o‘ylaganman. Ochiqli, o‘z maqsadimni kamida 5 yilga kechik-



tirib turish haqida qaror qilib bo‘lgandim. Ya‘ni turmush o‘rtog‘im o‘qishni tamomlab, ishlay boshlaganidan keyin o‘qiymam, degan fikrga kelgandim. Biroq davlatimiz tomonidan xotin-qizlarga magistraturada bepul o‘qish imkoni berilishi orzumni 5 yilga tezlashtirib yubordi. O‘sha paytdagi quvonchimni so‘z bilan ta‘riflab berish qiyin.

Aslida, har bir qiz yaxshi o‘qib, o‘z sevgan kasbiga ega bo‘lishni orzu qiladi. Davlatimizning bu kabi qo‘llab-quvvatlashidan keyin esa bu orzular amalga osha boshladi.

Yaqinda farzandli bo‘ldik. Ming shukrki, oilamning ko‘magi bilan o‘qishimni ham qiyalmasdan davom ettiryapman. O‘ylab qolaman, ayol kishi uchun atrofidagi muhitning qo‘llab-quvvatlashidan ham ko‘ra yaxshiroq baxt bormikan?!

MAGISTRATURADA O‘QISHDAN UMIDIMNI UZGANDIM

Aziza ZARIPOVA, O‘zbekiston Milliy universiteti ingliz tili lingvistikasi yo‘nalishi magistranti:



— Magistraturada o‘qishdan umidimni uzib bo‘lgandim. Chunki yosh oilamiz, mendan tashqari ham kontraktida o‘qiydiganlar bor. Turmush o‘rtog‘im hozirda Toshkent tibbiyot akademiyasi magistranti. Tabiiyki, bir oilada ikki kishining magistraturada o‘qish uchun shartnoma pulini to‘lash og‘irlik qiladi. Ammo, magistraturada o‘qish istagi bo‘lgan xotin-qizlarga shartnoma puli davlat tomonidan to‘lab berilishi yo‘lga qo‘yilgani yurtimizda shu niyatdagi barcha xotin-qizlar kabi meni ham juda quvontirib yubordi. Yosh oila sifatida biz bu imkoniyatni zo‘r xursandchilik bilan qabul qildik.

Men bilan birga ta‘lim olayotganlarning ko‘pchiligi shu imti-

yoz sharofati bilan o‘qiyotgan xotin-qizlar hisoblanadi. Biror sabab bilan yig‘ilishib qolsak, albatta, davlatimiz bergan bu imkoniyatni eslamasdan tarqal-maymiz.

Bu g‘amxo‘rlik kelajakda o‘z samarasini berishiga ishonaman. Chunki shu imkoniyat tufayli bilimi zo‘r, ammo moddiy imkoniyati yetarli bo‘lmagan yuzlab xotin-qizlar o‘qishini davom ettirish baxtiga muayassar bo‘ldi.

BOLALIKDAN NIYAT QILAR EDIK

Shodiyona BEKNAZAROVA, Qarshi davlat universiteti o‘zbek filologiyasi yo‘nalishi magistranti:



— Bolalikdan birga ulg‘aygan Nigora ismli dugonam bor. Bir mahallada yashab, maktabda bir sinfda o‘qidik. Birga dars tayyorlardik, musobaqayu tadbirlarga ham birga qatnashardik. Maktabni namunalni tamomladik. Kollejda o‘qib, universitetga tayyorgarlik ko‘rdik. O‘sha paytlardayoq universitetda o‘qib, ilmiy ishimizni ham birgalikda boshlaymiz, deb niyat qilganmiz.

Niyatimiz xolis ekan, universitetga bir yo‘nalishga kirish nasib etdi. To‘rtinchi kursga kelib, Nigora ham, men ham turmushga chiqdik. Shundan keyin magistraturada o‘qishimni davom ettirish borasida ikkilana boshladim. Dugonam o‘ziga to‘g‘roq, imkoniyati yetarli oilaga kelin bo‘ldi. Mening esa turmush o‘rtog‘im hali talaba edi. Shu vaziyatda ozroq sabr qilishga qaror qildim. Lekin bolalikdan birga ulg‘aygan o‘rtog‘im bilan yo‘limiz ayrilishi menga og‘ir botdi. Tan olaman, ba‘zida alam ham qilgan.

Ana shunday kunlarning birida ko‘nglimni butunlay yorishtirib yuborgan qarorni eshitdim. O‘sha kundagi quvonchimni bilsangiz edi. Xursandligimdan qo‘shiq aytib, raqsga tushib yuborganimni bilmay qolibman. Nigora ham bundan xursand bo‘ldi.

Bugun ikkalamiz ham magistraturada o‘qiyapmiz. Xudo xohlasa, doktorlik ilmiy ishimizni ham birgalikda himoya qilamiz.

Jonibek ALIJONOV, jurnalist



YOSHLAR OYLI

SHIJOATLI YOSH TADBIRKORLAR

iqtisodiyot rivojini yuksak pog‘onaga olib chiqadi

Boshlanishi 1-betda

Ushbu oylik yoshlarni yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik, Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, davlat va jamiyat hayotining turli sohalarida katta yutuqlarga erishgan va bugungi kunda yoshlarga namuna bo‘layotgan zamonamiz qahramonlari bilan uchrashuvlar, kitobxonlik, she‘riyat va nasr kechalari,

Marafon spikerlaridan biri, tadbirkor Hasan Mamasaidovning qayd etishicha, aslida, muvaffaqiyat tajribaning, tajriba esa xatolarning natijasi. Yoshlarni tajribali tadbirkorlar yo‘l qo‘ygan xatolarni takrorlamasdan, qiyinchiliklarga duch kelmasdan, o‘z oldiga qo‘ygan marralariga yetishishga ko‘maklashish eng katta maqsadlardan biridir. Marafon kabi tadbirlar esa jamiyatning, mamlakatning, iqtisodiyotning yangi pog‘onaga chiqishiga zamin yaratadi.



musohiralari o‘tkazish orqali yosh ijodkorlarni kashf etishga qaratilgan.

O‘z navbatida, “Yoshlar — kelajagimiz” jamg‘armasi ham oylik doirasida bir qancha loyihalarga start berdi. Ular orqali hozirga qadar besh mingga yaqin yoshlar qamrab olindi. Oylik doirasida o‘tkazilgan uchrashuv hamda suhbatlarda yigit-qizlarning murojaatlari tinglandi.

“Biznes marafon” — yoshlar uchun bilimlar manbai

“Yoshlar oyligi” doirasida o‘tkazilishi an‘anaviy tusga kirgan “Biznes marafon”ning to‘rtinchi mavsumiga start berildi. Ko‘plab yoshlarning talab va istaklari asosida tashkil etilayotgan marafon kelajagini o‘z qo‘li bilan yaratish niyatida bo‘lgan yoshlar uchun ayni muddao bo‘lmoqda.

Binobarin, respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan eng ilg‘or tadbirkorlar ishtirokidagi ushbu marafon o‘zaro tajriba almashish, biznes va tadbirkorlik faoliyatiga zamonaviy texnologiyalar, innovatsion ishlanmalarni jalb etish, jahon bozoriga chiqish uchun yo‘llarni vazifasini o‘tay-

“Agroxakaton” iqtidorli yoshlarni birlashtiradi

Jamg‘arma faoliyati yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g‘oyalari va loyihalarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashishdan tashqari, o‘z biznesiga ega va endilikda dunyo bozorlarini zabt etishga harakat qilayotgan yosh tadbirkorlar uchun ham turli imkoniyatlarni taqdim etadi. Ana shunday tadbirlardan biri 9-12-iyun kunlari Qirg‘izistonda bo‘lib o‘tdi.

“Agroxakaton” tadbirida o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida jamg‘arma boshchiligidagi yosh tadbirkorlardan iborat O‘zbekiston delegatsiyasi ham ishtirok etdi. Samarali hamda mazmunli o‘tgan tadbir doirasida loyiha amalga oshirilayotgan hududlardagi yosh tadbirkorlar AKT mutaxassislari bilan birga ishladi, o‘z bizneslari uchun innovativ yechimlarni ishlab chiqdi.

“Agroxakaton” yoshlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga qiziqishini oshirish, iqtidorlarini aniqlash hamda qishloq xo‘jaligi



“Yoshlar — kelajagimiz” jamg‘armasi ham oylik doirasida bir qancha loyihalarga start berdi. Ular orqali hozirga qadar besh mingga yaqin yoshlar qamrab olindi. Oylik doirasida o‘tkazilgan uchrashuv hamda suhbatlarda yigit-qizlarning murojaatlari tinglandi.



HAMKORLIK

ILMSEVAR AVLOD UCHUN QULAY MAYDON

Shu kunlarda Rossiya Federatsiyasi Qozon federal universiteti va Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti o‘rtasida tuzilgan hamkorlik shartnomasi asosida Nukus tumani hududidagi “Hayvonqal’a” yodgorlik majmuasida xalqaro arxeologik ekspeditsiya ishlari o‘tkazilmoqda. Bu nimasi bilan muhim? Avvalo, ekspeditsiya davomida topilgan madaniy buyum va qatlamlar bo‘yicha xalqaro ilmiy fikrlar shakllantiriladi.



— Qolaversa, yoshlarga arxeologik qazish ishlari qanday olib borilishini amaliy tushuntirish, topilgan buyumlar qaysi davrga tegishli ekanini aniqlash, qisqa qilib aytganda, arxeolog olimga zarur bo‘lgan barcha ko‘nikma va tushunchaga ega bo‘lish uchun katta imkoniyat beradi, — deydi Nukus davlat pedagogika instituti rektori Bayrambay Utemuratov. — Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida ko‘plab qadimiy shaharlar o‘rni bor. Faqat biz ularni ko‘proq o‘rganishimiz zarur. Bu bir tomondan, sayyohlikni rivojlantirish uchun kerak bo‘lsa, ikkinchidan, talabalarimizni ilm yo‘liga undaydi.

Xalqaro miqyosda birinchi marta tashkil etilayotgan mazkur arxeologik ekspeditsiyada Tatariston Respublikasi Arxeologiya instituti olimlari, shu bilan birga, Rossiya, Qozog‘iston oliy ta‘lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlaridan 20 dan ortiq mutaxassis, Nukus davlat pedagogika institutining tarix fakulteti professor-o‘qituvchilari hamda talaba yoshlari ishtirok etmoqda.

Arxeologik qazish ishlari natijasida turar joylar, o‘sha davrdagi savdo-iqtisodiyot aloqalaridan darak beruvchi mis va kumush tangalar, shisha idishlar parchalari, geometrik shakldagi naqsh-

lar tushirilgan keramika sopol idishlar parchalari ham topildi.

— Bu yerda qazish ishlari 2014-yili boshlangan edi, — deydi Tatariston Respublikasi Arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi Shamil Amirov. — Bugungi kunga kelib uning birinchi qismi yakunlandi. Natijada IX-XI asrlarga tegishli buyumlar topildi. Ular noyob yodgorliklarni hisoblanadi. Endi VII-VIII asrga oid tarixiy qatlam joylari o‘tiladi.

Talabalar dala amaliyotini olib borishda zamonaviy arxeologik va geologik uskunalaridan foydalanish ko‘nikmasiga ham ega bo‘lmoqda.

— Xalqaro ko‘lamda o‘tkazilayotgan ushbu ekspeditsiya institut bazasida tashkil etilmoqda, — deydi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tarix fakulteti dekani Maman Saribayev. — Moddiy-texnik tomondan yordam ko‘rsatilgan. Zarur asbob-uskunalar sotib olingan. Xususan, ekspeditsiyani tashkil etish uchun institut tomonidan 1 milliard 400 million so‘mga maxsus chodirlar hamda 4 milliard so‘mga qazishma ishlari foydalaniladigan arxeologik asbob-uskunalar sotib olingan.

Qazish ishlari talaba yoshlari-miz chet ellik olimlarning auditoriyada o‘tgan darslarini amaliyotda sinab ko‘rmoqda. Bu kelajakda ularning yetuk mutaxassis bo‘lishida juda katta yordam beradi. Shuningdek, ayrim 3-4-bosqich talabalarimiz arxeologiya, antropologiya, etnografiya yo‘nalishlari bo‘yicha magistratura ta‘limini hamkor oliy ta‘lim muassasalarida olishi mumkin. Bu borada kelishuvlar mavjud, shartnomalar imzolangan.

Qayd etganimizdek, ekspeditsiyadan ko‘zlangan maqsad aniq. Topilgan materiallar asosida ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi. Ularning natijalari keng jamoatchilikka yetkaziladi. Xalqaro miqyosda e‘lon qilinadi. Izlanish va natijalar esa talabalarga ilm yo‘lida katta maydon yaratadi.

Minajatdin QUTLIMURATOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

sohasi samaradorligini yanada yaxshilashga xizmat qiluvchi eng istiqbolli g‘oya va startaplarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida o‘tkaziladi. U yanada barqaror oziq-ovqat tizimini yaratish hamda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha innovatsion g‘oyalarni bilan chiqqan yoshlar jamoalarini o‘zida birlashtiradi.

— “Agroxakaton” iqtidorli yigit-qizlar o‘rtasida ochiq muloqot va fikr almashish uchun qulay maydon hamdir, — deya baholaydi jamg‘armaning ijrochi direktori.

Bilim va tajriba platformasi

Jamg‘arma yoshlar oyligi doirasida faqat ushbu tadbirlar bilan cheklanib qolgan yo‘q. Biznesga qiziqadigan yoshlarni bir jamoaga jamlash hamda ularga biznes ko‘nikmalar, tadbirkorlarga beriladigan imtiyozlar, soliq, bank sohasi bo‘yicha bilimlar berish hamda taniqli biznes egalari bilan treninglar tashkillashtirish va yuzma-yuz suhbatlashish imkoniyatini yaratish maqsad qilib olingan “DO BUSINESS” loyihasiga start berildi.

Loyiha doirasida tashkil etiluvchi o‘quv kurslari mutlaqo bepul bo‘lib, muvaffaqiyatli tamomlagan o‘quvchilar maxsus sertifikat bilan taqdirlanishi rejalashtirilgan.

Xulosa o‘rinda aytish kerakki, yoshlar uchun ular bilan birga ishlash orqali islohotlar samaradorligini yanada oshirish mumkin bo‘ladi. Faol jalb etilgan yoshlar muhim amaliy ko‘nikmalarini shakllantiradi, qat‘iy hayotiy qararlarga ega bo‘lib, mamlakatni taraqqiyotga eltuvchi kuchga aylanadi.

Nodira QURBONBOYEVA, jurnalist

ADABIY DOʻSTLIK — ABADIY DOʻSTLIK



Yangiboy QOʻCHQOROV, yozuvchi, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi

 Boshlanishi 1-betda

Ota-bobolarimizning ilk qomusiy lugʻatlaridan biri sanalgan “Devonu lugʻotit turk” naikni turkiy xalqlar, balki jahon pedagogik tafakkurining noyob namunasi boʻlib, u atqoli olimimiz, filologiya fanlari doktori S.Mutallibov (asar ustida 35 yil ish olib borgan) tarjimasida oʻtgan asrning oltmishinchi yillarida 3 jildda kitobxonlarimiz qoʻliga borib yetdi. Noyob antologiya uchun ushbu nodir badiiyat namunasini isteʼdodli olimimiz, filologiya fanlari doktori H.Boltaboyev nashrga tayyorladi.

Qoraxoniylar davrida bir emas, bir necha betakror soʻz durdonalari yaratildi. Muhtasham yuz jildlikning 3-jildiga turkiy xalqlar mumtoz adabiyotining ikki atqoli sarboni — Yusuf Xos Juhjoning “Qutadgʻu biligʻ” va Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarlari kiritilgan.

Sharq badiiy tafakkurining yana bir boqiy obidasi hisoblangan “Qutadgʻu biligʻ” (“Sao-datga eltuvchi bilim”) milodiy 1070, hijriy 462-yili nihoyasiga yetkazilgan. Demak, bir necha nomga ega ushbu asar “Devonu lugʻotit turk”dan sal avval bitilgan. Asar forsiy manbalarda “Turkiy Shohnoma” deyilgan.

Muallif asarining “abadiy yodgorlik” boʻlib qolishini orzu qilishini yashirin oʻrtimaydi. Unda nafaqat qoraxoniylar saltanati, balki oʻsha davrdagi boshqa nufuzli davlatlar boshqaruv tizimiga doir siyosiy kuzatishlar oʻz ifodasini topgan. Oʻn birinchi asrning ulkan shoiri va olimi boʻlgan muallif, birinchi navbatda, “Xalqning sarvari zehnlil, zakovatli, ziyrak, bilimli shaxs” boʻlishi kerak, degan ustuvor gʻoyani ilgari suradi. Bu va boshqa fikrlar Kuntugʻdi, Oytoʻldi, Oʻgʻdoʻlmish, Oʻzgʻurmish obrazlari, ularning falsafiy muloqoti orqali ifodalangani.

Asarning ilk qoʻlyozmasi Hirotida ulugʻ Alisher Navoiy tavalludidan 2 yil avval koʻchirilgan. Ajoyib asarning dastlabki nashriini tayyorlashda fidoyi olim Q.Karimovning xizmati katta boʻldi. Asarni yuz jildlikka filologiya fanlari doktori B.Toʻxliyev tayyorladi. “Qutadgʻu biligʻ” jahonning oʻnlab tillariga oʻgʻirildi.

Qozonning qaymogʻi objuvozdan keladi, deydlilar. 3-jildiga kirgan yana bir buyuk asar — ulkan alloma Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar hadyasi”) jahon mumtoz adabiyotida oʻz oʻrniga ega monumental bitiklar sirasiga kiradi. Undagi “Ilmli kishilar tillo dinordir, Ilmsizu johillar el ichra xordur”, degan satrlar asarning leymotivini belgilaydi. Birinchi qoʻlyozmasi temuriy sulton Mirzo Ulugʻbek zamonida, aniqrogʻi, 1444-yili Roʻyi zamin sayqalida koʻchirilgan. Asarning asosiy boblari islom taʼlimotiga, qolgan qismlari etika, estetika, tishunoslik va fanning boshqa sohalariga bagʻishlangan. Bu galgi nashr Sharq mumtoz adabiyotining beqiyos bilimdoni E.Ochilov tomonidan tayyorlandi.

Yuz jildlikning 4-jildidan, ulugʻ Alisher Navoiy iborasi bilan aytganda, “Turkiston mulkning shayx ul-mashyoihi, Turkiston ahlining qiblii duosi”, turkiy xalqlar sheʼriyatining peshvolaridan biri Ahmad Yassaviy hikmatlari oʻrin olgan. Yassaviy hazratlarining oʻzi “Qul Xoja Ahmad, har bir soʻzning dardga dardon” satri sheʼrida Yaratganning amri ila 4400 hikmat bitganini yozadi. Eng avvalo, insonni eʼzozlashga daʼvat etguvchi bu hikmatlar nihoyatda xalqchil, ravon tilda bitilgan. Buyuk xor, karomatli ulamoning kindik qoni tomgan Sayram — Isfijob —

Tiroz, unga tutash hududlardagi Yassi, Langar, lyqon, Oʻtror, Turbat, Toroz va boshqa muqaddas-u mukarram maskanlar qadimdan ulugʻ avliyolar poyqadamini tekkan joylardir.

Ahmad Yassaviyning shuhrati Sayram va Yassidan lochindek parvoz qilib, Samarqand-u Sigʻnoq, Qashqar-u Qoʻqon, Oʻzgand-u Xoʻjand, Bolosogʻun-u Buxoro, Oʻsh-u Shosh, Gurganj-u Ganja, Mashhad-u Marv, Izmir-u Nishopur, Damashqu Hamadon, Bagʻdod-u Basra, Makka-yu Madinaga yetdi. “Sulton ul-orifin” adabiy merosini oʻrganish borasida taniqli olimlardan A.Fitrat, A.Saʼdiy, F.Koʻprilzoda, V.Zohidov, N.Mallayev, Y.Bertels, A.Borovkov, A.Abuov, I.Haqqulov va boshqalarning mashaqqatli mehnatlari eʼtirofga loyiqdir.

Toʻrtinchi jildidan Yassaviyning zamon-doshi, shogirdi Sulaymon Boqirʻoniyning dilbar sheʼrlari ham oʻrin oldi. Azim daryolar yuksak togʻlardagi boqiy sarchashmalardan boshlangani kabi mumtoz sheʼriyatimizning Atoiy, Sakkokiy, Saroiy, Gadoiy, Lutfiy kabi ulugʻlari ijodi nafaqat Yassaviy, balki Hakim Ota, yaʼni Sulaymon Boqirʻoniy bulogʻidan kuch oladi. Ushbu magʻzi toʻq jild isteʼdodli tadqiqotchilarimizdan S.Raʼfidin va N.Hasan tomonidan nashrga tayyorlandi.

Beshinchi jildga kirgan noyob badiiy soʻz yodgorligi, mumtoz nasrimizning goʻzal namunasi “Qisasi Rabgʻuziy” milodiy 1310, hijriy 710-yil erta bahorida nihoyasiga yetkazilgan. Nosiruddin Rabgʻuziy yetuk olim, ulkan shoir, sermahsul tarjimon edi. “Qisasi Rabgʻuziy”da Odam Atodan tortib, Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamgacha boʻlgan paygʻambarlardan rivojlatilgan vositasida tavsif berilgan. Eng eʼtiborli jihati, asar noyob rivojlatilgan, hikoyatlar bilan birga muqaddas oyatlar, hadis shariiflar, ajoyib sheʼriy parchalar bilan bezatilganki, u yetti asrdan buyon badiiy adabiyot, falsafa mux-

dostonlari, 19-jildga U.Nosirning olovli sheʼrlari, goʻzal dostonlari, mukammal tarjimalari, 20-jildga Mirtemirning oʻynoqi sheʼr va quyma dostonlari, 21-jildga A.Muxtorning falsafiy sheʼrlari, insonparvarlikni ulugʻlagan “Ildizlar” qissasi va hikoyalari, 22-jildga O.Yoqubovning “Koʻhna dunyo” tarixiy romani, jozibali hikoyalari, 23-jildga P.Qodirovning shoh va shoir siymosini mahorat bilan chizgan “Yulduzli tunlar” romani, 24-jildga E.Vohidovning jahon sheʼriyatining nodir namunalaridan biriga aylangan “Ruhlar isyon”i dostoni, xalq qalbiga hamohang sheʼrlari, 25-jildga Sh.Xolmirzayevning nasrimiz ufqini yanada kengaytirgan qissa va hikoyalari, 26-jildga A.Oripovning hamisha barhayot sheʼrlari, “Jannatga yoʻl”, “Sohibqiron” dramalari, 27-jildga Oʻ.Hoshimovning zamona oʻriqlariga bagʻishlangan “Tushda kechgan umrlar” romani, T. Murodning xalqona ohanglardagi “Ot kishnagan oqshom”, “Oydingda yurgan odamlar” qissalari, 28-jildga O.Matjon, 29-jildga H.Xudoyberdiyeva, 30-jildga R.Parfi, Sh.Hahmon-

tini koʻrsatib turadi. Ushbu jildlarga kirgan asarlarni qayta oʻqiganingizda yana bir bor ularga mahliyo boʻlasiz, estetik dunyongiz yanada kengayadi, badiiy soʻzga yuklangan sehr-u sururdan sarmast boʻlasiz.

Oʻzbek va qoraqalpoq xalqlari azaldan bir zaminda yashab, bir daryodan suv ichib, ming yillik quvonchu tashvishlarni birga boshdan kechirib, bir-birini qoʻllab-quvvatlab, betakror adabiyoti va bezavol madaniyatini uygʻun tarzda rivojlantirib, bir-birining intellektual olamini boyitib keladi. Ikki buyuk xalqning “Kuntugʻmish” va “Qirgʻiz”, “Goʻroʻgʻli” va “Shahriyor” kabi dostonlari bilan birga yozma adabiyoti ham yonma-yon yuksalib, biri-biridan quvvat olib kelmogʻda.

Muhtasham 100 jildlikning 34-jildiga buyuk qoraqalpoq mumtoz shoirilaridan Berdaq Qargʻaboy oʻgʻli, Kunxoʻja Ibrohim oʻgʻli, Ajiniyoz Qoʻsiboy oʻgʻli asarlari jamlandi. “Navoiydan savod ochgan” Berdaq “zamon hasratidan sargʻayib yorugʻ kunlar”, Kunxoʻja nochor xalqqa non va farovonlik, Ajiniyoz boʻz tuproqli orolni tark etgan avom uchun adolat izladi. Ammo uch buyuk shoir faqat taqdiridan noliish bilan cheklanmadi, biri belni bogʻlab xalq uchun kurashishga, ikkinchisi mehnatdan orom izlashga, uchinchisi ijtimoiy tenglikka undadi. Uchala shoir ham lirik, falsafa, satira qalamli bilan XIX asrning zulum-u zoʻravonlikka toʻla soʻqmoqlaridan bardosh bilan oʻtdi.

Bugungi turkiy xalqlar adabiyoti solnomasida ikki atqoli qoraqalpoq ijodkori — Oʻzbekiston va Qoraqalpogʻiston xalq shoiri, Oʻzbekiston Qahramoni I.Yusupov va Oʻzbekiston va Qoraqalpogʻiston xalq yozuvchisi, Oʻzbekiston Qahramoni T.Qaipbergenov adabiy merosining salmoqli oʻrni bor. Oshiq Ayoz — I.Yusupovning “Toʻmaris” dostoni atqoli zamondoshlaridan R.Hamzatovning “Onalarni asrang”, Q.Quliyevning “Yaralangan tosh”, E.Vohidovning “Ruhlar isyon”i, Oʻ.Sulaymonovning “Az i ya” poemalari bilan hamohangdir. Ulugʻvor antologiyaning 35-jildi toʻliq I.Yusupov yaratgan durdonalar-



li avlodga mansub zabardast vakillaridan S.Zunnunova, N.Fozilov, X.Toʻxtaboyev, Oʻ.Umarbekov, N.Aminov, S.Siyoyev, Murod Muhammad Doʻst, E.Aʼzam, X.Doʻst-muhammad, X.Sulton, S.Oʻnar, I.Sulton, R.Haydarova va boshqalarning magʻzi toʻq hikoyalari kiritildi.

Bu jildlar osmondagi turkum-turkum chaqnoq yulduzlardek birgalikda porlab, bugungi adabiyotimizning uzoq-uzoqlardan koʻzga tashlanadigan boʻy-bastini, mahoba-

dan tuzildi. Oʻquvchilar 36-jildga atqoli adib T.Qaipbergenovning “Qoraqalpogʻnoma” roman-essesi bilan tanishadi. Oʻzbek tiliga R.Otayev oʻgʻirgan bu asar “Otang bolasi boʻlma, odam bolasi boʻl” degan ajoyib maqol bilan boshlanadi. Muallif koʻngildan kechgan gaplar, adib ota-onasining qimmatli fikrlari, koʻcha biylarining nodir iboratalari, xalq rivojlatilari orqali oʻz taqdiriga, oʻz xalqi taqdiriga, sayyoramiz taqdiriga teran nigoh tashlaydi.



37-jildga A.Musayev, A.Dobilov, S.Nurumbetov, T. Jumamuratov, B.Qaipnazarov, X.Seyitov kabi katta avlod, T.Seytonov, B.Ismoilov, G.Shamuratova, U.Xoʻjanazarov, T.Matmuratov, T.Qobulov, K.Rahmonov, T.Sarsenboyev kabi oʻrta avlod, K.Karimov, J.Izbosqonov, H.Ayimbetov, A.Oʻtepbegonov, X.Dauletnazarov, N.Toʻreshova, Sh.Ayapov kabi keyingi avlod, S.Ibragimov, M.Jumanazarova, K.Reymov, B.Genjemuratov, G. Dauletova, G.Nurlepsova, F.Mirzaboyeva kabi kenja avlod shoirilarining sheʼrlari jamlandi. Ularda zamon va inson, elu yurt, ona tabiat, lirik qahramonning ruhiy olami tarannum etiladi. 38-jildga esa zamonaviy qoraqalpoq nasrining eng sara namunalari bilan tanishish mumkin.

Jahon adabiyoti marjon shodasi boʻlsa, undagi bitta beqiyos marvarid mumtoz va zamonaviy turk badiiy soʻz sanʼati hisoblanadi. Ajoyib antologiyaning 39-jildidan 55-jildigacha, yaʼni 17 jild turk adabiyoti durdonalarini oʻz ichiga oldi. Dunyodagi eng qadimiy etnoslardan birini yaratgan badiiy adabiyot, birinchi navbatda, “Oʻgʻuznoma”, “Koʻroʻgʻli”, “Dada Qoʻrqut kitobi” kabi tengsiz folklor javohirlariga tayanadi. Dastlabki davrda turk mumtoz adabiyoti fors klassik sheʼriyati bilan hamohang boʻldi. Ezgu soʻz va ezgu fikr meʼmorlariga aylangan Jaloliddin Rumi, Yunus Emro va Tojiddin Ahmadiy ijodiyoti fikrimizning yorqin dalillari boʻla oladi. Antologiyaning turk adabiyoti qismi boshlab bergan 39-jildni ana shu uch ulugʻ shoir asarlarini jamlagan.

Rumi adabiy merosi xuddi Firdavsiy, Dante, Hofiz, Saʼdiy, Navoiy, Shekspir, Gyote, Pushkin, Servantes va boshqa umumbashariy buyuklar qatori boqiy maqomga egadir. Birgina “Maʼnaviy masnaviy” orqali u eng ulugʻ mutafakkirlar safidan joy oldi. Ulugʻ donishmand “Ishq dardiga yoʻlloqan zob bu olamdagi eng sogʻlom kishidir”, deb yozadi. Turk adabiyotida muhabbat lirikasini buyuk Yunus Emro eng yuqori pogʻonalarga koʻtargan boʻlsa, Tojiddin Ahmadiy XIV asr oxirida oshiqlar olami tarannumida yangi sahifalar ochdi. Ushbu jild sheʼr ixlosmandlari dunyosini boyitdigan ajoyib kitob boʻldi.

Antologiyaning 40-jildiga atqoli turk adibi Nomiq Kamolning “Jaloliddin Xorazmshoh” dramasi (Xurshid Davron tarjima qilgan), sheʼrlari kiritildi. Dramaning shuhrati bois, Mehmed afandi (adibning asi ismi) surgundan qaytarilib, yuqori lavozimga tayinlandi. U XIX asrning uchinchi choragida bir necha roman ham yozib, oʻz adabiyotida ushbu janrning shakllanishiga keng yoʻl ochib berdi. “Dengiz kabi har doim joʻshqin koʻngil” egasi boʻlgan Rizo Tavfiq Fikrat ijodidan sara namunalar ham ushbu jildidan oʻrin oldi. Badiiy ijodni siyosiy faoliyat bilan uygʻun olib borgan shoir turk xalqi erk, ozod hayot latbatlaridan bahramand boʻlishi lozimligini sheʼrlari uchun shior qildi.

Qirinchii jildga kirgan uchinchi muallif Nozim Hikmat nafaqat ulkan shoir, balki tinchlik uchun tolmaz kurashchi sifatida dogʻ taratdi. Jildidan uning “Inson manzaralari” asari ham oʻrin oldi. N.Hikmat sheʼrlarini dastlab H.Olimjon va M.Shayxzoda, keyingi davrda R.Parfi kabi atqoli shoirilarimiz oʻz tilimizga oʻgʻirdi.

Qirq birinchi jildga Rashod Nuri Guntekinning jahonning bir necha avlod oʻquvchilariga yaxshi maʼlum boʻlgan “Choliqushi” romani, 42-jildga Mehmen Oʻnderning “Mavloni”, Xayritdin Ivginning “Manas — Oltoy togʻlari qoploni”, Dunder Alprin “Sharqning eng buyuk hukmdori — Temur” romanlari, 43-jildga atqoli adiblardan Oʻrxon Kamolning “Firibgar”, Suod Darvishning “Fosforli Javriya” romanlari, 44-jildga Umar Sayfiddin, Sabohiddin Ali hikoyalari, 45-jildga Yashar Kamolning roman va qissalari, 46-jildga Husayn Nihol Otsizning “Koʻkboʻrilar” tarixiy romani, 47-jildga buyuk satirik Aziz Nesin hikoyalari, 48-jildga Ahmad Gunbay Yulduzning “Gullar suvsaganida”, Ahmad Lutfi Qozonchining “Oʻgay ona” romanlari, 49-jildga Mehmet Akif Ersoy, Ziyio Koʻkalp, Mehmet Emin Yurdakul, Najib Fozil Qisakurak, Yahyo Kamol sheʼrlari, 50-jildga Yavuz Bahodir oʻgʻlining “Xorazm” roman-dilogiyasi, 51-jildga Xolida Adib Adivar va Said Foyiq Abasiyoniqning qissa hamda hikoyalari, 52-jildga Tariq Buhroning “Usmon Gʻozi” romani, 53-jildga Bahouddin Qorakoʻch Sazoyi sheʼrlari kiritildi. Antologiyaning 54-jildiga zamonaviy turk sheʼriyati, 55-jildiga zamonaviy turk nasrining eng yaxshi namunalari joylandi.

Jozibador 100 jildlikning 16 jildiga ozarbayjon adabiyotining eng sara namunalari kiritildi. Xususan 56-jildidan buyuk

Nizomiy Ganjaviyning “Layli va Majnun” dostoni va gʻazallari, 57-jildidan Imodiddin Nasimiy, Mulla Panoh Voqif, Mahsatiy Ganjaviy, Afzaliddin Xoqoniy, Hayron Xonim, Xurshidbonu Notavonning gʻazal va ruboiylari, 58-jildidan Muhammad Fuzuliyning “Ishq izhori” devoni hamda “Layli va Majnun” dostoni, 59-jildidan Husayn Jovid dramalari, 60-jildidan Mamedsaid Oʻrubbodiyning “Qilich va qalam” romani, 61-jildidan Saidazim Shirvoniy, Muhammad Hodi, Aliakbar Sobir gʻazallari, 62-jildidan Yusuf Vazir Chamanzaminlining “Ikki oʻt orasida” romani, Jalil Mamatqulizoda hikoyalari, 63-jildidan Samad Vurgʻun sheʼrlari, 64-jildidan Mirza Ibrohimovning “Shunday kun keladi” romani, 65-jildidan Ahmad Javod, Sulaymon Rustam, Olmos Yildirim, Mikoil Mushfig, Rasul Rizo, Nabi Hazriy sheʼrlari, 66-jildidan Baxtiyor Vahobzoda va Xalil Rizoning sheʼrlari, dostonlari, 67-jildidan Yusuf Samadoʻgʻlining “Qatl kuni” romani, Anorning qissa va hikoyalari, 68-jildidan Sobir Rustamxonli va Ramiz Ravshan sheʼrlari oʻrin oldi. 69-jildga zamonaviy ozarbayjon nazmi, 70-jildga zamonaviy ozarbayjon nasri namunalari joylashtirildi. Ular ozarbayjon adabiyotining naqadar goʻzal va rang-barang iflorli guldestarlari borligini tasdiqlaydi.

Antologiyaning navbatdagi 10 jildiga Abay, Jambul, Magʻjon, Shokarim, Ahmed Boytursun, M.Avezov, S.Mugonov, G.Musrepov, Q.Abdugʻodirov, A.Olimjonov, Oʻ.Sulaymonov, M.Maqotayev, J.Molodogʻaliyev, M.Shoxonov asarlari, zamonaviy qozoq poeziyasi va prozasi namunalari kiritildi. Biz 79-jildni nashrga tayyorlab, soʻzboshi yozdik. Bir necha jildga tarjimalarimiz kirdi. Ushbu jildlar qozoq adabiyotining mavqei hamon oʻta baland ekanini, avvalgi goʻzal asarlar qatoriga yangi sheʼrlar, dostonlar, romanlar qoʻshilayotganini koʻrsatdi. Olmali bogʻlar va behisob alohidorlar diyorining gul-lab-yashnashiga ulning adabiyoti ham salmoqli ulush qoʻshmogʻda.

Sakson ikkinchi jild “Sarchashma” ru kni ostida qirgʻiz adabiyotining 13 nafar yorqin vakili asarlaridan iborat guldestani oʻz ichiga olgan. “Oltin avlod vakillari” deb nomlangan yana bir jildga esa sakiz atqoli qirgʻiz shoirining sheʼr va dostonlari jamlandi. 88-jildga zamonaviy qirgʻiz sheʼriyatining eng ajoyib namunalari oʻquvchiga havola qilindi. Ayni paytda 100 jildlik bugungi qirgʻiz adabiyotida proza tobora yuksalib borayotganidan darak bermoqda. Ch.Aytmatovdek ulugʻ adib asarlari orqali jahon minbariga chiqqan adabiyotning parvozi yanada baland boʻlishiga shak-shubha yoʻq.

Amuning soʻl sohili, Murgʻob va Atrak qirgʻoqlari, Kopetdogʻning qizgʻaldoqli etaklarida boʻy tiklagan turkman adabiyoti necha asrlarki, jahon badiiy tafakkuri taraqqiyotida muhim oʻrin tutib kelmogʻda. 100 jildidan Ozodiy, Maktumtuli, Mullanasfas, Andalib, Mullamurod Xorazmiy gʻazallari, sheʼrlari, dostonlari oʻrin oldi. Alohida jildga turkman mumtoz sheʼriyati namunalari toʻplandi. Turkman nasri durdonalaridan atqoli adiblar X.Deryayev, B.Kerboboyev, Q.Tangriquliyev, Oʻ.Yagʻmur, O.Togʻon romanlari kitobxonga yuksak maʼnaviy boylik baxsh etadi. 99-jild “Zamonaviy turkman adabiyoti antologiyasi” deb nomlandi. Yakunlovchi jild qardosh venger adabiyotiga ajratildi. Oʻquvchilar venger Shekspiri deb nom olgan Yanosh Aron asarlaridan bahramand boʻladi. Ularda mojar qardoshlarimizning musaffo orzu-intilishlari oʻz ifodasini topgan.

Yangi Oʻzbekistonda beqiyos maʼnaviy bisot yaratildi. 100 jildniki nashrga hozirlash oʻz-oʻzidan boʻlgani yoʻq. Taniqli adibimiz X.Sulton rahbariyatida tahrir hayʼati, U.Hayitov boshchiligidagi nashriyot jamoasi, S.Xoʻjaahmedovning yetakchi muharrirlar guruhi, koʻp sonli nashrga tayyorlovchilar va tarjimonlar sayʼ-harakatlarining samarasi oʻlaroq monumental nashr chop etildi. Yuqorida tilga olinganlar bilan birga V.Rahmon, T.Qahhor, Z.Isomiddinov, A.Alimbekov, D.Begimqulov, M.Kenjabek, O.Ergash, B.Sharipov, K.Bahriyev, B.Karim, A.Ulugʻov, M.Ahmad, M.Omon, O.Joʻrabojev, A.Tojiev, M.Rahmatov, X.Hamidov, A.Rustamov, T.Ahmedov, K.Mullaxoʻjayeva, Z.Rahmonova, G.Ashurova, M.Qoʻchqorova, Sh.Qosimova va boshqalar unumli mehnat qildi.

Bu ezgu ishlarning bardavom boʻlishiga ishonamiz!